

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI FAOLIYATINI YANADA
TAKOMILLASHTIRISHGA DOIR TASHKILY CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 13-apreldagi PF-5415-son [Farmoniga](#) muvofiq:

1. Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining asosiy vazifalari etib belgilansin:

yagona davlat huquqiy siyosatini yuritish, huquq ijodkorligi faoliyatini muvofiqlashtirish va samaradorligini oshirish;

Oldingi tahrirga qarang.

davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini ilg‘or xorijiy tajriba va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari asosida tahlil va monitoring qilish;

(1-bandning uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF-5997-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 20.05.2020-y., 06/20/5997/0634-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(1-bandning to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son)

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida huquqni qo‘llash amaliyotini izchil va bir xilda ta‘minlash bo‘yicha choralarni amalga oshirish;

nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini rivojlantirish sohasida davlat siyosatini yuritish, ularning davlat organlari va tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorligini tashkil qilishga ko‘maklashish;

Oldingi tahrirga qarang.

ma‘muriy tartib-taomillar sohasini ilg‘or xorijiy tajriba va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari asosida muntazam ravishda takomillashtirib borish;

(1-bandning yettinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF-5997-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 20.05.2020-y., 06/20/5997/0634-son)

Oldingi tahrirga qarang.

davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va uslubiy ta‘minlash, shuningdek, qonunchilik hujjatlarida belgilangan davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko‘rsatilishini ta‘minlash;

(1-bandning yettinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi PF-61-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/61/0084-son)

Oldingi tahrirga qarang.

huquqiy targ‘ibotni amalga oshirish, aholiga qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mohiyati va ahamiyatini yetkazish, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda davlat organlari va tashkilotlarining qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta‘minlash borasidagi faoliyatini “Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda” rukni ostida yoritish va muhokama qilish ishlarini tashkil etish va yanada jadallashtirish, aholining huquqiy savodsizligini yo‘q qilish

bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek davlat organlari va tashkilotlarining huquqiy targ'ibot sohasidagi ishlarini muvofiqlashtirish;

(1-bandning sakkizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son)

huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash;

notariat, advokatura hamda jismoniy va yuridik shaxslarga huquqiy xizmat ko'rsatuvchi boshqa tuzilmalar tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash;

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini huquqiy himoya qilish bo'yicha choralarni amalga oshirish;

xalqaro-huquqiy hamkorlikni yo'lga qo'yish va mustahkamlash, xalqaro shartnomalarni huquqiy ekspertizadan o'tkazish;

xalqaro va xorijiy tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasi manfaatlarining huquqiy himoyasini ta'minlash, xalqaro hamjamiyat, xorijiy investorlarni milliy huquq tizimi va o'tkazilayotgan huquqiy islohotlar haqida o'z vaqtida xabardor qilish;

yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish, yurisprudensiya sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirishni ta'minlash;

sud ekspertlik faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish, sud ekspertlarini tayyorlash va malakasini oshirish ishlarini muvofiqlashtirish;

adliya organlari va muassasalari faoliyatida, birinchi navbatda aholiga huquqiy xizmat ko'rsatish va davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda ishlashning innovatsion uslublarini joriy qilish;

Oldingi tahrirga qarang.

intellektual mulk sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;

(1-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-iyuldagi PQ-4380-sonli qaroriga asosan xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 07/19/4380/3360-son)

Oldingi tahrirga qarang.

jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiladigan samarali fuqarolik-huquqiy mexanizmlarni joriy qilish va rivojlantirish;

(1-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF-5997-sonli Farmoniga asosan xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.05.2020-y., 06/20/5997/0634-son)

Oldingi tahrirga qarang.

siyosiy-huquqiy sohaga oid xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston Respublikasining o'rni oshirish bo'yicha tizimli va izchil choralar ko'rish.

(1-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi PF-6003-sonli Farmoniga asosan xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.06.2020-y., 06/20/6003/0708-son)

Oldingi tahrirga qarang.

normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining tartibga solish ta'sirini baholash sohasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish;

qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning o'z vaqtida, to'liq va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash yuzasidan, shu jumladan Hisob palatasi bilan birgalikda sohalar, hududlar va idoralar kesimida manzilli va tematik tahliliy o'rganishlarni olib borish va joylardagi holat monitoringini yuritish;

qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning amalda bajarilishiga to'sqinlik qilayotgan muammolar va omillarni aniqlash, ularni hal etish bo'yicha tegishli vazirlik va idoralar oldiga aniq masalalarni qo'yish, davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, sohaga xos bo'lmagan, takrorlanuvchi vazifa va funksiyalarini qisqartirish, ularda ortiqcha qog'ozbozlik va majlisbozlikka yo'l qo'ymaslik yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

davlat organlari va tashkilotlariga qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi yuzasidan huquqiy-uslubiy ko'maklashish, ularning tegishli bo'linma rahbarlarini ijro intizomiga rioya etilishi bo'yicha o'qitishda ishtirok etish;

(1-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoniga asosan yigirmanchi — yigirma uchinchi xatboshilar bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son)

Oldingi tahrirga qarang.

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha choralarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish.

(1-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyundagi PF-6252-son Farmoniga asosan xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.06.2021-y., 06/21/6252/0617-son)

2. Quyidagilar:

a) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi markaziy apparati tuzilmasida:

Davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini tahlil qilish boshqarmasi;

Ijtimoiy-iqtisodiy sohada huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish boshqarmasi;

Hukumat bayonnoma qarorlari va idoraviy normativ hujjatlarni huquqiy ekspertizadan o'tkazish boshqarmasi;

Qonun hujjatlarini tahlil qilish va turkumlash boshqarmasi;

Huquqiy xizmat ko'rsatishni davlat tomonidan tartibga solish boshqarmasi;

Xalqaro va xorijiy tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini huquqiy himoya qilish boshqarmasi;

b) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Huquqiy axborot bilan ta'minlash markazi va "Adolat" nashriyoti negizida:

davlat unitar korxonasi shaklidagi Adliya organlari va muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi (keyingi o'rinlarda AKTRM deb yuritiladi);

davlat unitar korxonasi shaklidagi "Adolat" huquqiy axborot markazi (keyingi o'rinlarda "Adolat" markazi deb yuritiladi) tashkil qilinsin.

Belgilab qo'yilsinki, AKTRM va "Adolat" markazi faoliyatini moliyalashtirish tovarlar (xizmatlar, ishlar)ni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar, budjetdan tashqari Adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining budjetdan tashqari boshqa mablag'lari, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Adliya organlari va muassasalariga AKTRM va "Adolat" HAM bilan tender (tanlov) savdolarini o'tkazmasdan xizmatlar ko'rsatish (ishlar bajarish) bo'yicha shartnomalar tuzishga ruxsat etilsin.

3. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to'g'risidagi nizom [1-ilovaga](#) muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimining tashkiliy tuzilmasi [2-ilovaga](#) muvofiq;

Oldingi tahririga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan boshqaruv xodimlarining cheklangan umumiy soni 210 nafardan iborat bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi markaziy apparati tuzilmasi **3-ilovaga** muvofiq;

(3-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son)

Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi tuzilmasi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalarining namunaviy tuzilmasi **4** va **5-ilovalarga** muvofiq;

tumanlar (shaharlar) adliya bo'limlarining namunaviy tuzilmasi **6-ilovaga** muvofiq;

normativ-huquqiy hujjatlarning ijrochilarga yetkazilishi hamda ulardagi norma va qoidalarning aholiga tushuntirilishi sxemasi **7-ilovaga** muvofiq;

Adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar **8-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Oldingi tahririga qarang.

O'zbekiston Respublikasi adliya vaziriga:

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi markaziy apparati, adliya organlari va muassasalarining tuzilmasiga xodimlarning belgilangan umumiy soni doirasida o'zgartirishlar kiritish;

davlat organlari va boshqa tashkilotlar, ilmiy va ta'lim muassasalari, xalqaro tashkilotlar, xorijiy kompaniyalarning yuqori malakali mutaxassislarini, shuningdek, ekspertlarni maslahatchi sifatida jalb qilish;

Oldingi tahririga qarang.

malakali xorijiy mutaxassislarni ishga qabul qilish va ularga ish haqini milliy valyutada yoki xorijdagi hisobvaraqlariga o'tkazgan holda chet el valyutasida to'lash huquqi berilsin.

(3-bandning o'n ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyuldagi PF-6021-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.07.2020-y., 06/20/6021/1047-son)

4. 2018-yil 1-maydan boshlab shunday tartib joriy etilsinki, unga ko'ra:

Oldingi tahririga qarang.

barcha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari loyihani ishlab chiquvchi tashkilotlar tomonidan Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portaliga (regulation.gov.uz) jamoatchilik muhokamasi o'tkazilishi uchun joylashtirilishi lozim;

(4-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son)

Oldingi tahririga qarang.

normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari Vazirlar Mahkamasiga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyaga faqat huquqiy ekspertiza yakuni bo'yicha ularni qabul qilishning maqsadga muvofiqligi haqidagi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining xulosasi mavjud bo'lgandagina kiritiladi;

(4-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi PF-5650-sonli Farmoni tahririda)

huquqiy ekspertiza yakuni bo'yicha hududiy adliya organlarining ijobiy xulosasi mavjudligi mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishning majburiy sharti hisoblanadi;

Oldingi tahrirga qarang.

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan huquqiy ekspertizadan ular manfaatdor tashkilotlar bilan kelishilganidan so‘ng, shuningdek takroran — Vazirlar Mahkamasi apparati va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi tarkibiy tuzilmalarida ularning konseptual qoidalari o‘zgartirilganida o‘tkaziladi;

(4-bandning beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi PF-5650-sonli Farmoni tahririda)

vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar agar qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari bilan ularga tegishli hujjatni qabul qilish yoki aniq ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish bo‘yicha vakolat berilgan bo‘lsa, idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishlari mumkin.

5. Belgilansinki, 2019-yil 1-yanvardan O‘zbekiston Respublikasi hududida 1993-yil 17-iyungacha qabul qilingan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tmagan umummajburiy idoraviy hujjatlar, shu jumladan sobiq SSSRning idoraviy hujjatlari o‘z kuchini yo‘qotadi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda mazkur bandga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotayotgan normativ-huquqiy hujjatlar o‘rniga yangilarini ishlab chiqish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

6. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida maslahat organi sifatida jamoatchilik asosida ishlaydigan, faoliyati fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan ochiq muloqotni rivojlantirishga qaratilgan Jamoatchilik kengashi tuzilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bir oy muddatda Jamoatchilik kengashi tarkibini hamda unga yuklatilgan vazifalarni samarali bajarishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni tasdiqlasin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va Bosh prokuraturasining quyidagi takliflari ma‘qullansin:

Oldingi tahrirga qarang.

a) **9-ilovada** keltirilgan kasb-hunar kollejlari va akademik litseyni O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yuridik texnikumlariga (keyingi o‘rinlarda yuridik texnikumlar deb yuritiladi) quyidagi tartibni o‘rnatgan holda aylantirish:

yuridik texnikumlarning o‘quv-metodik jarayonini muvofiqlashtirish, ularga amaliy va axborot-resurslari jihatdan ko‘maklashish Toshkent davlat yuridik universiteti (keyingi o‘rinlarda TDYU deb yuritiladi) tomonidan, ularning faoliyatiga rahbarlik qilish va nazoratni tashkil etish hamda tashkiliy-kadrlar bazasini mustahkamlash esa — hududiy adliya organlari tomonidan amalga oshiriladi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi adliya vaziri o‘rinbosari hamda viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari boshliqlari o‘rinbosarlari — yuridik texnikumlar direktorlari hisoblanadi hamda ular mehnatiga haq to‘lash va moddiy rag‘batlantirish yuridik texnikumlarning mablag‘lari (davlat budjeti mablag‘lari bundan mustasno) hisobidan amalga oshiriladi;

yuridik texnikumlarni zarur o‘quv va sport uskunalari, kompyuter texnikasi va axborot-resurs fondlari bilan jihozlash xarajatlari ta‘limga ajratiladigan budjet mablag‘lari, shuningdek Adliya vazirligining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi;

yuridik texnikumlarga qabul qilish har bir hududning “yurisprudensiya” yo‘nalishi bo‘yicha professional ma’lumotga ega bo‘lgan kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini inobatga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan belgilanadigan kvotalar, mutaxassislik va kasblari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan o‘tkaziladigan test sinovlari asosida amalga oshiriladi;

2021/2022 o‘quv yilidan boshlab yuridik texnikumlari bitiruvchilari TDYUga hududiy adliya organlarining yo‘llanmalari bo‘yicha kirish test sinovlarisiz yakka tartibdagi suhbat o‘tkazish orqali bakalavrlarni tayyorlashning maxsus uch yillik dasturi bo‘yicha va o‘qishning tugashidan so‘ng taqsimotga muvofiq uch yil davomida uzluksiz ishlab berish majburiyatini olgan holda kirishga haqli;

qayta tashkil qilinayotgan yuridik kollejlari va akademik litseyning 3 kurs o‘quvchilarining o‘qishi ularni ta’limning o‘xshash yo‘nalishlari bo‘yicha yaqin joylashgan kasb-hunar kollejlari va akademik litseyning o‘quvchilar kontingentiga qo‘shish yo‘li bilan ushbu ta’lim muassasalarida tamomlanadi;

(7-bandning “a” kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son)

Oldingi tahrirga qarang.

b) TDYU magistraturasiga talabalarni to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish parametrlarini, magistratura mutaxassisliklarini universitetning ilmiy-pedagogik salohiyati va moddiy-texnik bazasi imkoniyatlarini hisobga olgan holda Adliya vazirligi bilan kelishgan xolda TDYU tomonidan belgilash;

(7-bandning “b” kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi PF-5987-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.04.2020-y., 06/20/5987/0521-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(7-bandning “v” kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi PF-5987-sonli Farmoniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.04.2020-y., 06/20/5987/0521-son)

g) TDYUning boshqaruv xodimlari, professor-o‘qituvchilari, ilmiy, o‘quv-yordamchi, texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlariga moddiy rag‘batlantirish maxsus jamg‘armasi hisobidan o‘rnatiladigan har oylik ustamalar miqdorini ikki baravarga oshirish;

Oldingi tahrirga qarang.

d) pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tarmoq markazi negizida TDYU huzurida Yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo‘yicha professional o‘qitish markazini (keyingi o‘rinlarda Markaz deb yuritiladi) tuzish, unda quyidagilarni:

(7-bandning “d” kichik bandi birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 11-iyuldagi PF-5475-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.07.2018-y., 06/18/5475/1489-son)

oliy ma’lumotga ega mutaxassislarni yuridik mutaxassislik bo‘yicha qayta tayyorlash kurslari;

xalqaro standartlar bo‘yicha yuridik kadrlarni kasb-hunarga o‘qitish yuzasidan xalqaro tijorat faoliyati, xalqaro arbitrajlar va sud nizolarini huquqiy ta’minlashni o‘z ichiga olgan qisqa muddatli o‘quv kurslari;

Oldingi tahrirga qarang.

professional va oliy ta'lim muassasalarida huquqiy fanlardan dars beruvchi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarini tashkil etish.

(7-band "d" kichik bandining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son)

8. Belgilansinki:

Markazda yuridik mutaxassislik bo'yicha qayta tayyorlash kurslarida o'qitish to'lov-kontrakt asosida olti oy muddatda, imtihon natijalari bo'yicha belgilangan namunada diplom bergan holda amalga oshiriladi;

yuridik mutaxassislik bo'yicha qayta tayyorlash kurslarini tugatgan va belgilangan namunadagi diplomni olgan shaxslar davlat organlari va boshqa tashkilotlarning yuridik xizmatlarida ishlash huquqiga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bir oylik muddatda Vazirlar Mahkamasiga Markazning faoliyatini tashkillashtirish, shuningdek yuridik mutaxassislik bo'yicha qayta tayyorlashga ruxsat etiladigan oliy ta'lim yo'nalishlari ro'yxatini tasdiqlash bo'yicha takliflarni kiritсин.

9. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda 2018-yil 1-iyulgacha **9-ilovaga** muvofiq kasb-hunar kollejlari va akademik litseyi bino va inshootlari, moddiy-texnik vositalari, o'quv uskunalari va boshqa mulklari bilan birga operativ boshqarish huquqi bilan bepul topshirsин, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi esa ularni qabul qilib olsин;

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda yuridik kollejlarga aylanayotgan kasb-hunar kollejlari va akademik litseyning bo'shatilayotgan pedagog kadrlarining mutaxassisligiga muvofiq ishga joylashtirilishini ta'minlasин.

10. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining "Madaniyat va ma'rifat" teleradiokanali" DUK tarkibida uning umumiy shtat soni doirasida efir vaqtini maqbullashtirish hisobidan "Huquqiy axborot" telestudiyasini tashkil etish haqidagi taklifiga rozilik berilsин.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi "Huquqiy axborot" telestudiyasini, eng avvalo, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning, shuningdek qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmuni va ahamiyatini aholiga yetkazishga qaratilgan sifatli efir materiallari bilan ta'minlab borsин.

Oldingi tahrirga qarang.

11. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining quyidagilar haqidagi takliflari ma'qullansин:

davlat notarial idoralari notariuslari tomonidan pullik xizmatlar ko'rsatishdan hamda huquqiy va texnik tushadigan qo'shimcha harakatlarni amalga oshirishdan kelib tushadigan mablag'larning 80 foizi miqdorigacha qismini davlat notarial idoralari xodimlarining lavozim maoshlariga har oylik shaxsiy ustama haqlari o'rnatishga yo'naltirish;

notariuslar tomonidan undiriladigan davlat boji summalaridan budjetdan tashqari Adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish jamg'armasiga ajratmalar miqdorini 10 foiz miqdorida belgilash;

Adliya vaziriga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda notarial harakatlarni amalga oshirganlik uchun davlat notarial idoralari notariuslari tomonidan undiriladigan davlat boji summalaridan ajratmalar va davlat notarial idoralari notariuslari tomonidan amalga

oshiriladigan huquqiy va texnik tUSDagi qo‘shimcha harakatlar uchun tushumlar hisobidan davlat notarial idoralarida qo‘shimcha tarjimon, operator, kuryer va aholiga notarial va u bilan bog‘liq kompleks xizmatlarni ko‘rsatish uchun boshqa ishchilar shtat birligini kiritish huquqi berilsin.

(11-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son)

12. Belgilansinki, 2018-yil 15-apreldan:

adliya organlari va muassasalari xodimlarining ko‘p yillik xizmatlari uchun ustamalar va martaba darajalari uchun qo‘shimchalar miqdorlari prokuratura organlari xodimlari uchun belgilangan miqdorlarga tenglashtiriladi;

Yagona tarif setkasi bo‘yicha mehnatga haq to‘lashning tasdiqlangan razryadlariga ko‘ra adliya organlari xodimlarining lavozim maoshini aniqlashda tarif koeffitsiyentlari bir yarim baravar miqdorda qo‘llaniladi;

adliya organlari va muassasalarining martaba darajalariga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi markaziy apparati xodimlariga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi adliya vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari boshliqlariga alohida mehnat sharoitlari uchun lavozim maoshiga qonun hujjatlarida belgilangan rag‘batlantiruvchi qo‘shimcha haq va ustamalarni hisoblashda lavozim maoshi tarkibiga kiritiladigan 50 foiz miqdorida ustama to‘lansin.

Oldingi tahrirga qarang.

Mazkur bandning **ikkinchi — to‘rtinchi xatboshilarining** amal qilishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan lavozimga tayinlangan va adliya organlari va muassasalarining martaba darajalariga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi apparati xodimlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi apparatida amalda bo‘lgan barcha to‘lovlar saqlangan holda, tatbiq qilinadi.

(12-bandning beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi PF-5650-sonli Farmoni tahririda)

Mazkur bandda nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar:

adliya organlari va muassasalari xodimlari uchun — adliya organlari va muassasalarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan;

Oldingi tahrirga qarang.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi apparati xodimlari uchun — O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan amalga oshiriladi.

(12-bandning sakkizinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi PF-5650-sonli Farmoni tahririda)



LexUZ sharhi

12-bandga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-avgustdagi PF-5795-sonli Farmoni bilan o‘zgartirishlar kiritilgan. Rus tili matniga qarang.

13. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan birgalikda bir oylik muddatda tumanlar (shaharlar) adliya bo‘limlarining joylashtirilishini ta‘minlasin.

14. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi:

ikki haftalik muddatda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda mazkur qarorga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining xarajatlar smetasi va shtatlar jadvaliga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin;

bir oylik muddatda qonun hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

ikki oylik muddatda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yuridik kollejlari o'quvchilarini Toshkent davlat yuridik universitetiga qabul qilish tartibini nazarda tutuvchi Hukumat qarorini kiritsin.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlari **11-ilovaga** muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

16. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi R.R. Inoyatov va O'zbekiston Respublikasi adliya vaziri R.K. Davletov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2018-yil 13-aprel,
PQ-3666-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qaroriga
1-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining (keyingi o'rinlarda Vazirlik deb yuritiladi) maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligini, faoliyatini tashkil etish va hisobot berish tartibini, shuningdek uning rahbarlarining funksional vazifalari va mas'uliyatini belgilaydi.

2. Vazirlik adliya organlari va muassasalari faoliyatiga umumiy rahbarlik qiluvchi va uni muvofiqlashtiruvchi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Vazirlik O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga (keyingi o'rinlarda Vazirlar Mahkamasi deb yuritiladi), faoliyatining ayrim masalalari bo'yicha esa bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunadi.

Vazirlik markaziy apparati, Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, hududiy adliya boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) adliya bo'limlari huquqni muhofaza qiluvchi organlar hisoblanadi.

3. Vazirlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining **Konstitutsiyasi** va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek, ushbu Nizomga va boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

4. Vazirlikning o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari, shuningdek fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

5. Vazirlik, Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, Vazirlikning tashkiliy tuzilmasiga kiradigan hududiy va tarkibiy tuzilmalar yuridik shaxs hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhrga va blankalarga, mustaqil balansga, shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga, bank hisob raqamlariga, shu jumladan, xorijiy valyutada bank hisob raqamlariga egadirlar.

6. Vazirlikning rasmiy nomi:

a) davlat tilida:

to'liq nomi — O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, qisqartirilgan nomi — Adliya vazirligi;

b) rus tilida:

to'liq nomi — Ministerstvo yustitsii Respubliki Uzbekistan, qisqartirilgan nomi — Ministerstvo yustitsii yoki Minyust;

v) ingliz tilida:

to'liq nomi — Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan, qisqartirilgan nomi — Ministry of Justice yoki Minjust.

7. Vazirlikning joylashgan joyi (pochta manzili): Toshkent shahri, Sayilgoh ko'chasi, 5-uy.

2-bob. Vazirlik tuzilmasi

Oldingi tahrirga qarang.

8. Vazirlik tizimiga quyidagilar kiradi:

Vazirlik markaziy apparati;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) adliya bo'limlari;

Davlat xizmatlari agentligi;

Intellectual mulk agentligi;

Huquqiy siyosat tadqiqot instituti;

X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi;

Oldingi tahrirga qarang.

“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi davlat muassasasi;

(8-bandning sakkizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF-5997-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.05.2020-y., 06/20/5997/0634-son)

Oldingi tahrirga qarang.

“Adliya organlari va muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi” davlat muassasasi;

(8-bandning to'qqizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF-5997-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.05.2020-y., 06/20/5997/0634-son)

davlat notarial idoralari va arxivlari;

Yuristlar malakasini oshirish markazi;

Toshkent davlat yuridik universiteti;

Oldingi tahrirga qarang.

yuridik texnikumlar;

(8-bandning o'n uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son)

Akademik litsey;

Oldingi tahrirga qarang.

(8-bandning o'n beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF-5997-sonli Farmoniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.05.2020-y., 06/20/5997/0634-son)

Adliya organlari va muassasalari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqildir va bevosita Vazirlikka bo'ysunadilar.

(8-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-iyuldagi PQ-4380-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 07/19/4380/3360-son)

3-bob. Vazirlikning vazifalari va funksiyalari

9. Quyidagilar Vazirlikning asosiy vazifalari hisoblanadi:

yagona davlat huquqiy siyosatini yuritish, huquq ijodkorligi faoliyatini muvofiqlashtirish va samaradorligini oshirish;

Oldingi tahrirga qarang.

davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini ilg'or xorijiy tajriba va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari asosida tahlil va monitoring qilish;

(9-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF-5997-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.05.2020-y., 06/20/5997/0634-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(9-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son)

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida huquqni qo'llash amaliyotini izchil va bir xilda ta'minlash bo'yicha choralarni amalga oshirish;

nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini rivojlantirish sohasida davlat siyosatini yuritish, ularning davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat tashkilotlari (keyingi o'rinlarda davlat organlari va tashkilotlari deb yuritiladi) bilan o'zaro hamkorligini tashkil qilishga ko'maklashish;

Oldingi tahrirga qarang.

ma'muriy tartib-taomillar sohasini ilg'or xorijiy tajriba va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari asosida muntazam ravishda takomillashtirib borish;

(9-bandning yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF-5997-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.05.2020-y., 06/20/5997/0634-son)

Oldingi tahrirga qarang.

davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va uslubiy ta'minlash, shuningdek, qonunchilik hujjatlarida belgilangan davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatilishini ta'minlash;

(9-bandning yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi PF-61-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/61/0084-son)

Oldingi tahrirga qarang.

huquqiy targ'ibotni amalga oshirish, aholiga qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mohiyati va ahamiyatini yetkazish, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda davlat organlari va tashkilotlarining qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta'minlash borasidagi faoliyatini "Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda" rukni ostida yoritish va muhokama qilish ishlarini tashkil etish va yanada jadallashtirish, aholining huquqiy savodsizligini yo'q qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek davlat organlari va tashkilotlarining huquqiy targ'ibot sohasidagi ishlarini muvofiqlashtirish;

(9-bandning sakkizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son)

huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash;
notariat, advokatura hamda jismoniy va yuridik shaxslarga huquqiy xizmat ko'rsatuvchi boshqa tuzilmalar tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash;

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini huquqiy himoya qilish bo'yicha choralarni amalga oshirish;

xalqaro-huquqiy hamkorlikni yo'lga qo'yish va mustahkamlash, xalqaro shartnomalarni huquqiy ekspertizadan o'tkazish;

xalqaro va xorijiy tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasi manfaatlarining huquqiy himoyasini ta'minlash, xalqaro hamjamiyat, xorijiy investorlarni milliy huquq tizimi va o'tkazilayotgan huquqiy islohotlar haqida o'z vaqtida xabardor qilish;

yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish, yurisprudensiya sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirishni ta'minlash;

sud ekspertlik faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish, sud ekspertlarini tayyorlash va malakasini oshirish ishlarini muvofiqlashtirish;

adliya organlari va muassasalari faoliyatida, birinchi navbatda aholiga huquqiy xizmat ko'rsatish va davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda ishlashning innovatsion uslublarini joriy qilish;

Oldingi tahrirga qarang.

jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiladigan samarali fuqarolik-huquqiy mexanizmlarni joriy qilish va rivojlantirish;

(9-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF-5997-sonli Farmoniga asosan xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.05.2020-y., 06/20/5997/0634-son)

Oldingi tahrirga qarang.

siyosiy-huquqiy sohaga oid xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston Respublikasining o'rnini oshirish bo'yicha tizimli va izchil choralar ko'rish.

(9-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi PF-6003-sonli Farmoniga asosan xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.06.2020-y., 06/20/6003/0708-son)

Oldingi tahrirga qarang.

normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining tartibga solish ta'sirini baholash sohasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish;

qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning o'z vaqtida, to'liq va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash yuzasidan, shu jumladan Hisob palatasi bilan birgalikda sohalar, hududlar va idoralar kesimida manzilli va tematik tahliliy o'rganishlarni olib borish va joylardagi holat monitoringini yuritish;

qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning amalda bajarilishiga to'sqinlik qilayotgan muammolar va omillarni aniqlash, ularni hal etish bo'yicha tegishli vazirlik va idoralar oldiga aniq masalalarni qo'yish, davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, sohaga xos bo'lmagan, takrorlanuvchi vazifa va funksiyalarini qisqartirish, ularda ortiqcha qog'ozbozlik va majlisbozlikka yo'l qo'yimaslik yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

davlat organlari va tashkilotlariga qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi yuzasidan huquqiy-uslubiy ko'maklashish, ularning tegishli bo'linma rahbarlarini ijro intizomiga rioya etilishi bo'yicha o'qitishda ishtirok etish;

(9-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoniga asosan o'n to'qqizinchi — yigirma ikkinchi xatboshilar bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son)

Oldingi tahrirga qarang.

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha choralarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish.

(9-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyundagi PF-6252-son Farmoniga asosan xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.06.2021-y., 06/21/6252/0617-son)

10. Vazirlik o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

1) yagona davlat huquqiy siyosatini yuritish, huquq ijodkorligi faoliyatini muvofiqlashtirish va samaradorligini oshirish sohasida:

konstitutsiyaviy normalarni amalga oshirish, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, jamiyatda qonunga rioya etish va hurmat ruhini mustahkamlash maqsadida huquqiy siyosatning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqadi;

Oldingi tahrirga qarang.

jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlash, shuningdek, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlashga qaratilgan izchil huquqiy siyosatni takomillashtiradi;

(10-bandning 1-kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF-5997-sonli Farmoniga asosan uchinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.05.2020-y., 06/20/5997/0634-son)

huquqiy bazani isloh qilishning o'rta muddatli va uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqadi;

huquqiy islohotlarni amalga oshirishda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini boshqaradi va muvofiqlashtiradi;

davlat organlari va tashkilotlarining huquq ijodkorligi masalalari bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtiradi va uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi;

davlat organlari va tashkilotlari huquq ijodkorligi faoliyatining monitoringi va tahlilini amalga oshiradi;

qonunlarni tayyorlash va qabul qilish zaruriyati masalalarining oldindan kelishuvini amalga oshiradi;

Oldingi tahrirga qarang.

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, shuningdek, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni qonunchilikka, xalqaro shartnomalar normalariga, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsad va vazifalariga, qonunchilik texnikasi qoidalariga muvofiqligini, ularni korrupsiyaga, boshqa huquqbuzarliklarni sodir etishga shart-sharoit yaratuvchi, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslar uchun ortiqcha ma'muriy va boshqa cheklovlarni joriy etuvchi qoidalar va normalarni aniqlash nuqtai nazaridan huquqiy ekspertizadan o'tkazadi;

(10-band 1-kichik bandining to'qqizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF-5997-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.05.2020-y., 06/20/5997/0634-son)

Oldingi tahrirga qarang.

normativ-huquqiy hujjatlarni amaliyotda qo‘llashdagi korrupsiyaviy xavflarni tahlil qiladi, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalaridagi korrupsiyaga sabab bo‘ladigan normalarni aniqlaydi, ularni bartaraf etishga qaratilgan choralar ko‘radi va tavsiyalar ishlab chiqadi;

(10-bandning 1-kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoniga asosan o‘ninchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari bo‘yicha va o‘z tashabbusiga ko‘ra normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi va ularni ko‘rib chiqish uchun belgilangan tartibda kiritadi;

Oldingi tahrirga qarang.

qonun hujjatlaridagi huquqiy nuqsonlarni, huquqbuzarliklarni sodir etishga shart-sharoit yaratuvchi, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslar uchun ortiqcha ma‘muriy va boshqa cheklovlarni joriy etuvchi qoidalar va normalarni aniqlaydi va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;

(10-band 1-kichik bandining o‘n ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son)

Oldingi tahrirga qarang.

normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish bo‘yicha takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasi, davlat organlari va boshqa tashkilotlarga ko‘rib chiqish uchun kiritadi;

(10-band 1-kichik bandning o‘n birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi PF-5650-sonli Farmoni tahririda)

qonunosti hujjatlariga rasmiy sharhlarning loyihalarini tayyorlaydi va ularni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasiga ko‘rib chiqish uchun kiritadi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlariga asosan normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy sharhlarining loyihalari bo‘yicha xulosalar beradi;

davlat organlari va tashkilotlarining normativ-huquqiy hujjatlari loyihalarini tayyorlash, yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish va huquqiy ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalarni tasdiqlaydi;

normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o‘tkazish tartibini belgilaydi;

idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish qoidalarini tasdiqlaydi;

Oldingi tahrirga qarang.

idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazadi;

(10-band 1-kichik bandning o‘n sakkizinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF-5997-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 20.05.2020-y., 06/20/5997/0634-son)

idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarning davlat reyestrini yuritadi;

vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning huquqiy hujjatlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim bo‘lmagan hujjatlar toifasiga kiritish haqida qarorlar qabul qiladi;

idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va manfaatdor shaxslar e‘tiboriga yetkazishning belgilangan tartibiga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

Hukumat bayonnoma qarorlari loyihalarini huquqiy ekspertizadan o‘tkazadi va imzolanganidan so‘ng ularning hisobini yuritadi;

mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish, eʼlon qilish va manfaatdor shaxslar eʼtiboriga yetkazishning belgilangan tartibiga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

davlat organlari va tashkilotlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarning turkumlashtirilgan hisobini yuritish tartibini tasdiqlaydi, unga rioya qilish ustidan nazoratni amalga oshiradi;

Oʻzbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarining davlat hisobini va qonun hujjatlarini turkumlashtirish boʻyicha ishlarni amalga oshiradi;

Oʻzbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarining nazorat nusxalarini yuritadi, ularning bankini (fondini) shakllantiradi;

Qonunchilik tarmoqlari umumhuquqiy klassifikatorini tasdiqlaydi, normativ-huquqiy hujjatlarga klassifikator asosida kodlar beradi;

adliya organlari va muassasalari faoliyati sohasidagi qonun hujjatlarini qoʻllash boʻyicha tushuntirishlar beradi;

Oldingi tahrirga qarang.

davlat boshqaruvi tizimining tartibga solish taʼsirini baholash boʻyicha faoliyatini muvofiqlashtiradi;

(10-bandning 1-kichik bandi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF-5997-sonli Farmoniga asosan xatboshi bilan toʻldirilgan — Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 20.05.2020-y., 06/20/5997/0634-son)

Oldingi tahrirga qarang.

2) davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini ilgʻor xorijiy tajriba va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari asosida tahlil va monitoring qilish sohasida:

davlat boshqaruvining tegishli sohalarida maʼmuriy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga salbiy taʼsir oʻtkazayotgan tizimli muammo va kamchiliklarni tahlil qiladi;

davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi va natijadorligini aniqlash maqsadida davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatini kompleks va tizimli monitoring qiladi;

davlat organlari va tashkilotlari vakolati va funksiyalarining toʻliq va sifatli amalga oshirilayotganligi hamda belgilangan maqsadlarga erishilayotganligini funksional tahlil qiladi;

tahlil va monitoring natijalariga koʻra davlat boshqaruvi tizimini, davlat organlari va tashkilotlarining tashkiliy-shtat tuzilmalarini va ishlash mexanizmlarini takomillashtirish, ularning bir birini takrorlovchi funksiyalarini, ortiqcha va xos boʻlmagan vazifalar, funksiyalar hamda vakolatlarni chiqarib tashlash hisobiga optimallashtirish va nomarkazlashtirish boʻyicha takliflar tayyorlaydi;

davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan ular tarkibidagi alohida tashkilotlarning (agentliklar, inspeksiyalar, markazlar va boshqalar) vazifa va funksiyalari amalga oshirilishining samaradorligi koʻrsatkichlarini (indikatorlarini) baholaydi;

maʼmuriy islohotlar doirasida vazirlik va idoralar tomonidan ishlab chiqiladigan yangi tashabbuslarni koʻrib chiqadi va ular boʻyicha inobatga olinishi majburiy boʻlgan xulosalar beradi;

davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida tizimli muammo va kamchiliklarni bartaraf etish boʻyicha takliflar ishlab chiqadi;

davlat boshqaruvi samaradorligini takomillashtirish va oshirish, jamoatchilik nazoratining samarali shakllarini joriy etish boʻyicha takliflarni tayyorlaydi va tegishli davlat organlari va tashkilotlariga kiritadi;

xo'jalik boshqaruvi va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga davlat funksiyalarini va alohida davlat vakolatlarini berish amaliyotini o'rganadi, shu asosda qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflarni tayyorlaydi;

davlat boshqaruvida ortiqcha sarflar darajasini pasaytirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish faoliyatining samaradorligini va tizimining ochiqligini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlariga bo'lgan ma'muriy ta'sirni yanada qisqartirish va boshqaruvning bozor mexanizmlarini kengaytirish bo'yicha choralarni ko'radi;

O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotning asosiy yo'nalishlarini shakllantirish bo'yicha takliflarni tayyorlaydi, ma'muriy islohotni amalga oshirish jarayonida yuridik ko'makni amalga oshiradi;

davlat boshqaruvini takomillashtirish, ma'muriy islohotni amalga oshirish sohasida tadqiqotlar o'tkazilishini tashkillashtiradi;

davlat organlari va tashkilotlari xodimlari faoliyatini baholash mezonlari tizimini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

davlat organlari va tashkilotlarining alohida funksiyalarini nodavlat sektorga, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik asosida o'tkazish maqsadga muvofiqligi haqida takliflarni ishlab chiqadi va ularning takliflari bo'yicha xulosalar beradi;

(10-bandning 2-kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF-5997-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.05.2020-y., 06/20/5997/0634-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(10-bandning 3-kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son)

4) davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida huquqni qo'llash amaliyotini izchil va bir xilda ta'minlash bo'yicha choralarni amalga oshirish sohasida:

davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llash amaliyotini tahlil qiladi va o'rganadi;

qonun hujjatlari va huquqni qo'llash faoliyati samaradorligi masalalari bo'yicha jamoatchilik fikrini o'rganishni tashkil qiladi, natijasi bo'yicha ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

qonun hujjatlari va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish maqsadida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni huquqiy tartibga solish yuzasidan xalqaro va xorijiy tajriba, ilmiy, tadqiqot ishlari natijalarini o'rgangan holda qiyosiy tahlil qiladi;

aniqlangan qonun hujjatlari buzilishlarini, ularning sodir etilishiga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha choralar ko'rish uchun huquqni qo'llash amaliyotining umumlashtirish materiallarini davlat organlari va tashkilotlariga yo'llaydi;

normativ-huquqiy hujjatlarni noto'g'ri yoki ziddiyatli tarzda qo'llash amaliyotini, shuningdek huquqni qo'llash amaliyotida huquqbuzarliklarning sodir etilishiga imkon beruvchi salbiy omillar, sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha amaliy choralar ko'radi;

davlat organlari va tashkilotlarining huquqni qo'llash faoliyatini tahlil qilish natijalari bo'yicha qonun hujjatlarini yanada takomillashtirishga oid takliflar tayyorlaydi;

normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llash masalalari yuzasidan o'z xulosasini shakllantiradi va yetkazadi;

qonun hujjatlarini qo'llash amaliyotini umumlashtiradi va tegishli soha faoliyatida davlat siyosatining amalga oshirilishi holatini tahlil qiladi, uning asosida huquqni qo'llash faoliyatini takomillashtirish bo'yicha choralarni ishlab chiqadi;

Oldingi tahrirga qarang.

davlat boshqaruvi organlarining huquqiy monitoringni o'tkazish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

qonun hujjatlari qo'llanilishining huquqiy monitoringini o'tkazishda qonun buzilishlarni bartaraf etish bo'yicha ta'sir choralarni ko'radi;

davlat boshqaruvi organlari tomonidan huquqiy monitoring o'tkazilishini tahlil qiladi va ular tomonidan huquqiy monitoring o'tkazish sifatini oshirish bo'yicha choralar ko'rish uchun tavsiyalar tayyorlaydi;

(10-bandning 4-kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-noyabrdagi PQ-4505-sonli qaroriga asosan xatboshilar bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.11.2019-y., 07/19/4505/3987-son)

5) nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini rivojlantirish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, ularning davlat organlari va tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligini tashkil qilishga ko'maklashish sohasida:

nodavlat notijorat tashkilotlarini va ularning ramziy belgilarini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiradi;

ro'yxatdan o'tkazilgan nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat reyestrini yuritadi;

nodavlat notijorat, shu jumladan diniy tashkilotlar tomonidan qonun hujjatlariga, ustav faoliyatiga, ta'sis hujjatlariga, qayta ro'yxatdan o'tkazish va tugatish tartibiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

nodavlat notijorat, shu jumladan diniy tashkilotlarga ajratilgan mablag'lar, grantlar, boshqa moliyaviy va moddiy resurslardan oqilona va maqsadli foydalanilishini ta'minlash bo'yicha choralar ko'radi;

nodavlat notijorat, shu jumladan diniy tashkilotlar faoliyati qonuniyligini ta'minlash masalalari bo'yicha davlat organlari va tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

nodavlat notijorat, shu jumladan diniy tashkilotlar tomonidan qonun hujjatlari, ustav faoliyati va ta'sis hujjatlari buzilishining oldini olish va bartaraf qilishga qaratilgan choralar ko'radi;

nodavlat notijorat, shu jumladan diniy tashkilotlarning chet el fuqarolari bo'lgan xodimlarini, shuningdek ularning qaramog'ida bo'lgan oila a'zolarini akkreditatsiyadan o'tkazadi;

nodavlat notijorat, shu jumladan diniy tashkilotlar tomonidan tashkil etilayotgan tadbirlar to'g'risidagi kelib tushayotgan axborotlarni tahlil qiladi;

nodavlat notijorat, shu jumladan diniy tashkilotlarning chet davlatlardan, xalqaro va chet el tashkilotlaridan, chet davlatlarning fuqarolaridan yoki ularning topshirig'iga binoan boshqa shaxslardan pul mablag'lari va mol-mulk olishini kelishadi;

nodavlat notijorat, shu jumladan diniy tashkilotlarning faoliyati haqidagi hisobotlarni qabul qiladi va tahlil qiladi;

nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan qonun hujjatlari buzilganda, ularning faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki ularni tugatish to'g'risida takliflar tayyorlaydi va sudga ko'rib chiqish uchun kiritadi;

siyosiy partiyalarning ustav faoliyatini moliyalashtirish uchun ajratilgan davlat mablag'larini ular o'rtasida taqsimlaydi;

nodavlat notijorat, shu jumladan diniy tashkilotlarning faoliyati ustidan monitoring olib borish, chet davlatlardan, xalqaro va chet el tashkilotlaridan, chet el fuqarolaridan yoki ularning

topshirig'iga binoan boshqa shaxslardan pul mablag'lari va mol-mulk olish tartibini belgilaydi, shuningdek nodavlat notijorat, shu jumladan diniy tashkilotlarning faoliyati haqidagi hisobotlarning, akkreditatsiya kartochkasining shakllarini tasdiqlaydi;

doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudlari hisobini ro'yxatdan o'tkazish va muvaqqat hakamlik sudlarini hisobga olishni amalga oshiradi;

Oldingi tahrirga qarang.

6) ma'muriy tartib-taomillar sohasini ilg'or xorijiy tajriba va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari asosida muntazam ravishda takomillashtirib borish sohasida:

davlat organlari va tashkilotlarining ma'muriy tartib-taomillar sohasidagi faoliyati tahlilini amalga oshiradi;

ma'muriy tartib-taomillar sohasida qonun hujjatlari va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

davlat organlari tomonidan ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan doimiy monitoringni amalga oshiradi;

ma'muriy tartib-taomillarni unifikatsiyalashtiradi;

davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilmaslik holatlari aniqlangan taqdirda ularning mansabdor shaxslarini javobgarlikka tortish masalasini ko'rib chiqish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasi takliflar kiritadi;

ma'muriy tartib-taomillar qonunchiligi normalarini tizimlashtiradi va xalqaro standartlar talablariga va eng yaxshi xorijiy amaliyotlarga uyg'unlashtiradi;

ma'muriy tartib-taomillarni amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi omillar, qonunchilikdagi huquqiy bo'shliqlar va kolliziyalarni bartaraf etish haqida takliflar ishlab chiqadi;

(10-bandning 6-kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF-5997-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.05.2020-y., 06/20/5997/0634-son)

7) davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va uslubiy ta'minlash sohasida:

davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirishni va nazoratini amalga oshiradi;

davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari faoliyatini, ular tomonidan amalga oshirilayotgan huquqiy ishlar holatini o'rganadi

davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari faoliyatini tartibga soluvchi aniqlangan qonun hujjatlari talablari buzilishlarini bartaraf etish, shuningdek aybdor shaxslarni qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortish bo'yicha choralar ko'radi;

davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari xodimlarini lavozimiga tayinlash va ozod qilishda ishtirok etadi;

davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlariga huquqiy ishlarga oid ko'rsatmalar beradi;

davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmatlari xodimlarining malakasini oshirishni tashkil qiladi;

davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini belgilaydi, attestatsiyadan o'tganlik to'g'risida guvohnoma beradi;

davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmatlari xodimlarining hisobini yuritadi;

davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmatlarining ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish tartibini, ma'lumotlar bazasiga kiritish uchun ma'lumot taqdim etish shakllari va muddatlarini belgilaydi;

davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari xodimlarini lavozimiga tayinlash va ozod qilish masalasini adliya organlari bilan kelishish tartibini belgilaydi;

davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmatlari xodimlarining adliya organlarida stajirovka o'tash tartibini belgilaydi;

davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmati xodimi lavozimiga birinchi marta tayinlangan shaxslarning stajirovka o'tashini tashkil etadi;

davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari faoliyatini uslubiy jihatdan ta'minlashni amalga oshiradi;

davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmatlari xodimlarining ish joyini moddiy-texnik jihatdan ta'minlashga qo'yilgan minimal talablarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

Oldingi tahrirga qarang.

qonunchilik hujjatlarida ko'rsatilgan hollarda Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan tuman (shahar) darajasidagi davlat organlari va tashkilotlariga zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida markazlashgan holda sifatli yuridik xizmat ko'rsatilishini tashkil qiladi;

qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa tashkilotlarga pullik asosda yuridik xizmat ko'rsatilishini tashkil qiladi;

(10-bandning 7-kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi PF-61-sonli Farmoniga asosan o'n oltinchi va o'n yettinchi xatboshilar bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/61/0084-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Oldingi tahrirga qarang.

8) huquqiy targ'ibotni amalga oshirish, aholiga qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mohiyati va ahamiyatini yetkazish, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda davlat organlari va tashkilotlarining qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta'minlash borasidagi faoliyatini "Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda" rukni ostida yoritish va muhokama qilish ishlarini tashkil etish va yanada jadallashtirish, aholining huquqiy savodsizligini yo'q qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining huquqiy targ'ibot sohasidagi ishlarini muvofiqlashtirish sohasida:

(10-band 8-kichik bandining birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son)

davlat organlari va tashkilotlar tomonidan huquqiy targ'ibot va ma'rifat bo'yicha olib borilgan ishlarni o'rganadi, shuningdek, ularning ushbu yo'nalishdagi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar tayyorlaydi;

davlat organlari va tashkilotlarning huquqiy axborotdan keng ko'lamda foydalanishini ta'minlash, ularning fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalari bilan samarali hamkorlik qilish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtiradi;

ijrochilar va aholini qonunchilikning mohiyati va ahamiyati to'g'risida xabardor qilishning sifatini tubdan oshirish, ushbu faoliyatni tashkil qilishda prinsipial yangi yondashuvlarni ishlab chiqish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

aholining turli qatlamlari, shu jumladan tadbirkorlar va yoshlarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda huquqiy targ'ibotni amalga oshirishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

ijrochilar va aholini qonunchilikning mohiyati va ahamiyati to'g'risida xabardor qilishning sifatini tubdan yaxshilash maqsadida keng jamoatchilik fikrini o'rganadi va tahlil qiladi, ushbu sohada ishlarni yanada takomillashtirish borasida takliflar ishlab chiqadi.

(10-bandning 8-kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-iyuldagi PQ-4380-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 07/19/4380/3360-son)

Oldingi tahrirga qarang.

qabul qilingan qonun hujjatlarining mazmuni va ahamiyatini aholi, tadbirkorlik subyektlari va xorijiy investorlarga yetkazish ko'lamini kengaytiradi, bu borada tarmoq vazirlik va idoralar faoliyati samaradorligini oshiradi;

(10-bandning 8-kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF-5997-sonli Farmoniga asosan xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.05.2020-y., 06/20/5997/0634-son)

Oldingi tahrirga qarang.

qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini "Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda" rukni ostida oddiy va xalqchil tilda tushuntirish bo'yicha videoroliklar, infografikalar va boshqa ko'rgazmali materiallar tayyorlaydi hamda ularni televideniye va ijtimoiy tarmoqlarda yoritib boradi;

qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosining natijalari yuzasidan videoroliklar tayyorlaydi;

qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijro holati bo'yicha "Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda" rukni ostida "Yuksalish" umummilliy harakati va "Taraqqiyot strategiyasi" markazi ishtirokida fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolarni jalb qilgan holda teleko'rsatuvlar tayyorlaydi;

(10-bandning 8-kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoniga asosan sakkizinchi — o'ninchi xatboshilar bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son)

9) huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash:

davlat organlari va tashkilotlarining huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanish imkoniyatini yaratish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi, uslubiy rahbarlikni va nazoratni amalga oshiradi;

normativ-huquqiy hujjatlar va tegishli axborot-tahliliy materiallarning barcha davlat organlari va tashkilotlariga o'z vaqtida yetkazilishini ta'minlaydi;

huquqiy axborotni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilishning dasturiy-texnik vositalari va texnologiyalari joriy etilishini tashkil qiladi;

davlat organlari va tashkilotlarini zarur normativ-huquqiy hujjatlar bilan ta'minlash choralarini ko'radi;

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasini yaratish va saqlashni tashkil qiladi, yuridik va jismoniy shaxslarning undan foydalanishini belgilangan tartibda ta'minlaydi;

normativ-huquqiy hujjatlarni, shu jumladan normativ-huquqiy hujjatlarni e'lon qilishning rasmiy manbai hisoblangan "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", shuningdek O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda "O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari to'plami"ning rasmiy nashr etilishini tashkil etadi;

10) notariat, advokatura hamda jismoniy va yuridik shaxslarga huquqiy xizmat ko'rsatuvchi boshqa tuzilmalar tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash sohasida:

notariat sohasida davlat siyosatini amalga oshiradi va yagona notarial amaliyotni ta'minlash bo'yicha choralar ko'radi;

notariuslar tomonidan notariat to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi, ularning ishini tahlil qiladi va umumlashtiradi;

Oldingi tahrirga qarang.

davlat notarial idorasi notariusini lavozimga tayinlash bo'yicha tanlov va xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini berish bo'yicha malaka imtihonini o'tkazish tartibini belgilaydi;

(10-band 10-kichik bandining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son)

“Notarius” yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimining shakllantirilishini va yuritilishini hamda uni vazirlik va idoralarning ma'lumotlar bazalari va axborot tizimlari bilan integratsiyalashni ta'minlaydi;

chet elda foydalanish uchun mo'ljallangan hujjatlardagi notariuslar imzosining va ularning muhri ko'chirmasining haqiqiylikini tasdiqlaydi, notariat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan boshqa funksiyalarni bajaradi;

notarial ish yuritish qoidalarini, notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomalarni, notarial harakatlar, tasdiqlovchi yozuvlar va guvohnomalarni ro'yxatga olish reyestrlari shaklini, notarius stajori faoliyatini tashkil etish tartibini tasdiqlaydi;

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Notarial palatasi (keyingi o'rinlarda Notarial palata deb ataladi) bilan kelishilgan holda notariuslar tomonidan statistik ma'lumotlarni taqdim etish shakllarini tasdiqlaydi va muddatlarini belgilaydi;

(10-band 10-kichik bandining sakkizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son)

Oldingi tahrirga qarang.

davlat notarial idoralarini tashkil etadi va tugatadi, notarius lavozimini ta'sis etadi va tugatadi, notariuslarning reyestrini yuritadi;

(10-band 10-kichik bandining to'qqizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son)

Oldingi tahrirga qarang.

xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar faoliyatini litsenziyalaydi;

Notarial palata bilan birgalikda xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarni hisobga qo'yish va hisobdan chiqarish tartibiga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

(10-bandning 10-kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoniga asosan o'ninchi — o'n ikkinchi xatboshilar bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son)

Oldingi tahrirga qarang.

notariuslar lavozimlari eng kam sonini tasdiqlaydi va muayyan hududdagi (notarial okrugdagi) notariuslar lavozimlari eng kam sonini belgilaydi;

(10-band 10-kichik bandining o'n uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son)

notariuslar malakasini oshirish, ularni attestatsiyadan o'tkazish va boshqa joyga o'tkazish (rotatsiya) tartibini belgilaydi;

Vazirlik huzuridagi Oliy malaka komissiyasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq tegishli rasmiy hujjatlarga apostil qo'yadi;

notarial idoralar, O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi konsullik muassasalarini qat'iy hisobdagi gerbli (maxsus) blanklar bilan ta'minlaydi;

notarial idoralarga beriladigan gerbli blanklarni hisobga olish, saqlash, sarflash va ular bo'yicha hisobot berish tartibini belgilaydi;

Oldingi tahrirga qarang.

pullik xizmatlar va notariuslar tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy va texnik xususiyatga ega qo'shimcha harakatlar ro'yxatini, ushbu harakatlar amalga oshirilganligi va xizmatlar ko'rsatilganligi uchun, shuningdek idoraviy notarial arxivlar tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga notarial tasdiqlangan hujjatlarning dublikatlari, reyestrlardan ko'chirmalar, ma'lumotnomalarning va arxiv hujjatlarining ko'chirma nusxalari berilganligi uchun to'lovlarning miqdorlarini tasdiqlaydi;

(10-band 10-kichik bandining o'n to'qqizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son)

advokatlik tuzilmalari va O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi faoliyati kafolatlarini ta'minlashda ko'maklashadi;

O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi bilan birgalikda malaka komissiyalari vakolatlari va faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi;

O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi huzuridagi Oliy malaka komissiyasi tarkibini tasdiqlaydi;

advokatlarga litsenziyalar berishni va advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazishni, shuningdek yuridik maslahatxonalarini hisobga qo'yishni amalga oshiradi;

tegishli adliya organida davlat ro'yxatidan o'tgan (hisobga qo'yilgan) advokatlik tuzilmalarida ishlayotgan advokatlarning Yig'ma davlat reyestrini yuritadi;

advokatlar malakasini oshirishda ko'maklashadi;

O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi bilan kelishilgan holda advokatlik tuzilmalarining statistik ma'lumotlarini taqdim qilish shakllarini tasdiqlaydi va muddatlarini belgilaydi;

advokatlik guvohnomasi shaklini va uni berish tartibini tasdiqlaydi;

advokat tomonidan ishni olib borishda order shaklini tasdiqlaydi;

advokatlar tomonidan litsenziya talablari va shartlariga, shuningdek advokatlik tuzilmalari tomonidan ta'sis hujjatlariga, ustav faoliyatiga, qayta ro'yxatdan o'tkazish va tugatish tartibiga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

advokatura faoliyati to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni o'rganadi;

notarial harakatlar bo'yicha statistikani yuritadi;

11) fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini huquqiy himoya qilish bo'yicha choralarni amalga oshirish sohasida:

inson huquqlari sohasidagi qonun hujjatlarini doimiy ravishda tahlil qiladi va uni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritadi;

davlat organlari va tashkilotlari tomonidan inson huquqlari sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili va Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazi bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

davlat organlari va tashkilotlarida inson huquqlari sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi holati to'g'risidagi axborot va materiallarni tahlil qiladi va umumlashtiradi, ularni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

fuqarolar o'z huquqlari va erkinliklari davlat organlari va tashkilotlari tomonidan buzilishi to'g'risidagi murojaatlarini xolisona va har tomonlama ko'rib chiqilishini ta'minlaydi, ularga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq choralar ko'radi;

inson huquqlari va erkinliklari buzilishi mumkin bo'lgan holatlar to'g'risida axborot yig'ish va xalqaro shartnomalarda aks ettirilgan inson huquqlari va erkinliklari universal standart prinsiplarini hisobga olgan holda uni baholashni amalga oshiradi;

inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish sohasida nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan o'tkazilayotgan monitoring natijalarini o'rganadi;

fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklash bo'yicha choralar ko'radi;

12) xalqaro-huquqiy hamkorlikni yo'lga qo'yish va mustahkamlash, xalqaro shartnomalarni huquqiy ekspertizadan o'tkazish sohasida:

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini tuzish bo'yicha takliflarni kelishadi, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini tayyorlash va ijro etishda ishtirok etadi;

xalqaro shartnomalar loyihalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazadi;

O'zbekiston Respublikasining huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi xalqaro shartnomalarini tayyorlash, tuzish va bajarish haqida takliflar taqdim etadi;

adliya organlari faoliyati sohasidagi xalqaro-huquqiy normalarni o'rganadi va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini ularga muvofiqlashtirishga doir takliflarni kiritadi;

xorijdan mablag' jalb qilish shartnomalari va O'zbekiston Respublikasi davlat kafolatlari bo'yicha belgilangan tartibda yuridik xulosalar beradi;

xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik to'g'risida shartnomalar tuzish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan xalqaro hamkorlikni o'rnatadi va rivojlantiradi;

13) xalqaro va xorijiy tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasi manfaatlarining huquqiy himoyasini ta'minlash, xalqaro hamjamiyat, xorijiy investorlarni milliy huquq tizimi va o'tkazilayotgan huquqiy islohotlar haqida o'z vaqtida xabardor qilish sohasida:

xalqaro va xorijiy tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasi manfaatlarining huquqiy himoyasini ta'minlaydi;

xalqaro arbitraj va sud muhokamalari masalalari bo'yicha xalqaro va xorijiy tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasi manfaatlarining huquqiy himoyasini ta'minlaydi, shuningdek ushbu sohalarida Tashqi ishlar vazirligi hamda boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan idoralararo hamkorlikni amalga oshiradi;

xalqaro shartnomalarga muvofiq xalqaro va xorijiy tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini ifodalaydi;

xorijiy davlatlar sudlarida va xalqaro arbitrajlarda tomonlardan biri O'zbekiston Respublikasi bo'lgan nizolar ko'rib chiqilayotganda O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini himoya qiladi;

O‘zbekiston Respublikasi ishtirokidagi sud va arbitraj muhokamalari bilan bog‘liq tegishli materiallarni yig‘ishni hamda tizimli tahlilini tashkillashtirishni amalga oshiradi;

xalqaro arbitraj muhokamalari vujudga kelishini oldini olish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqadi, xorijiy davlatlar sudlari va xalqaro arbitrajlarda O‘zbekiston Respublikasi manfaatlarining samarali himoyasini ta‘minlashga qaratilgan qonun hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha choralar ko‘radi;

xorijiy davlatlar sudlari va xalqaro arbitrajlarda O‘zbekiston Respublikasi manfaatlarini ifodalash maqsadida xorijiy va milliy advokatlik (yuridik) firmalari, maslahatchi va ekspertlarni jalb qiladi hamda faoliyatini muvofiqlashtiradi;

aniq bir arbitraj muhokamasi doirasida tashkil etiladigan ishchi guruhlarning ishchi organi funksiyalarini amalga oshiradi;

xorijiy davlatlar sudlari va xalqaro arbitrajlar muhokamalari masalalari bo‘yicha ma‘lumotlar bazasini shakllantiradi va yuritadi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va eks-Prezidentining huquqlari va qonuniy manfaatlarini huquqiy, shu jumladan sudda himoya qilishni amalga oshiradi;

mamlakatda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar, eng avvalo inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish masalalari bo‘yicha, shu jumladan ishonchsiz ma‘lumotlarni inkor qilish maqsadida xolis axborotni xalqaro hamjamiyatga va jamoatchilikka yetkazishni ta‘minlaydi;

vakolatli organlar ishtirokida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari va erkinliklari buzilishi, shu jumladan xalqaro tashkilotlardan kelib tushgan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomala turlarini qo‘llashga doir murojaatlarni ko‘rib chiqadi;

O‘zbekiston Respublikasining tegishli davriy ma‘ruzalarini ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha BMT konvension organlarining yakuniy e‘tirozlari va tavsiyalarining ijrosi bo‘yicha milliy harakat rejalarining amalga oshirilishini monitoring qiladi;

O‘zbekiston Respublikasining tegishli davriy ma‘ruzalarini ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha BMT konvension organlarining yakuniy e‘tirozlari va tavsiyalarini ko‘rib chiqadi;

O‘zbekiston Respublikasining tegishli davriy ma‘ruzalarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha BMT konvension organlarining yakuniy e‘tirozlari va tavsiyalarining ijrosi yuzasidan milliy harakat rejaları ishlab chiqilishida ishtirok etadi;

tegishli davriy ma‘ruzalarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha BMT konvension organlarining yakuniy e‘tirozlari va tavsiyalarini bajarish yuzasidan milliy harakat rejalarining ijrosi asosida huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari uchun inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi masalalari bo‘yicha uslubiy tavsiyanomalar ishlab chiqadi;

14) yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish, yurisprudensiya sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirishni ta‘minlash sohasida:

huquqiy ta‘limning holatini tahlil qiladi, uni yaxshilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

Oldingi tahrirga qarang.

professional va oliy ta‘lim tashkilotlarining o‘quvchilari va talabalari uchun yuridik darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, shuningdek boshqa yuridik adabiyotlar nashr etish rejalarini ishlab chiqadi va nashr etilishini tashkil etadi;

(10-band 14-kichik bandining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son)

davlat organlari va boshqa tashkilotlarning yuridik kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini aniqlaydi, ularni Vazirlik tizimidagi ta’lim muassasalarida tayyorlash ishlarini tashkil etadi va rahbarlik qiladi; yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni amalga oshiruvchi ta’lim muassasalarini akkreditatsiya qilishda, ularning pedagog va ilmiy xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazishda ishtirok etadi;

xorijiy davlatlarda yurisprudensiya sohasida berilgan ta’lim va ilmiy unvonlar haqidagi hujjatlarni e’tirof etish va nostrifikatsiya qilishda (ekvivalentligini belgilashda) ishtirok etadi; yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etadi; yuristlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini, kadrlar ishini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

kadrlar zaxirasini yaratadi, ularni tayyorlash, qayta tayyorlash va stajirovkadan o‘tishini tashkil etadi, adliya organlari va muassasalariga kadrlar tanlovini amalga oshiradi va ularni joy-joyiga qo‘yishda qatnashadi;

huquqiy fanlarni rivojlantirish choralari ko‘radi, davlat va jamiyat qurilishi, sud-huquq tizimi, mamlakatda huquq ijodkorligi, huquqni qo‘llash, huquqni muhofaza qilish faoliyati sohalarida fundamental va amaliy tadqiqotlarning amalga oshirilishini muvofiqlashtiradi;

huquq sohasidagi ta’lim ishlarining uslubiy jihatdan ta’minlanishini tashkil etadi, huquqiy tarbiya va ta’limning zamonaviy shakllarini joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqadi;

15) sud ekspertlik faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqish, sud ekspertlarini tayyorlash va malakasini oshirish ishlarini muvofiqlashtirish sohasida:

sud ekspertizasi sohasida ilmiy-tadqiqot, ekspertlik ishlarini tashkil etadi;

O‘zbekiston Respublikasi davlat sud-ekspert muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi va ularga ilmiy-uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi, shuningdek Sud ekspertizasi muammolari bo‘yicha kengashni boshqaradi;

sud ekspertlik faoliyatini yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqadi, sud ekspertlarini tayyorlash va malakasini oshirish sohasidagi ishlarni muvofiqlashtiradi;

sud ekspertlik faoliyatiga fan va texnika yutuqlarini joriy etish bo‘yicha choralarni ko‘radi;

sud ekspertizasi sohasidagi tizimli muammolarni kompleks o‘rganish va ularni hal etishga doir ilmiy asoslangan takliflar va ta’sirchan mexanizmlarni ishlab chiqadi;

16) adliya organlari va muassasalari faoliyatida, birinchi navbatda aholiga huquqiy xizmat ko‘rsatish va davlat xizmatlarini ko‘rsatish sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan holda ishlashning innovatsion uslublarini joriy qilish sohasida:

Oldingi tahrirga qarang.

adliya organlari va muassasalari faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va davlat xizmatlarini raqamlashtirish orqali “virtual adliya” tizimi ishlashini ta’minlaydi;

(10-bandning 16-kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF-5997-sonli Farmoniga asosan ikkinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 20.05.2020-y., 06/20/5997/0634-son)

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatining zamonaviy yutuqlari asosida adliya organlari va muassasalariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish strategiyasini belgilaydi;

elektron hukumat loyihalarini adliya organlari va muassasalarida samarali amalga oshirilishini ta’minlaydi;

innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va idoralararo elektron hamkorlikni rivojlantirish yo‘li bilan adliya organlarining aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorligi shakllarini takomillashtirish bo‘yicha choralarni amalga oshiradi;

adliya organlari va muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, shu jumladan elektron hukumatni joriy qilish va rivojlantirish uchun normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha takliflarni tayyorlaydi;

adliya organlari va muassasalari rasmiy saytlari, boshqa axborot resurslarini Internet tarmog'ida rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo'yicha choralarni amalga oshiradi;

adliya organlari va muassasalarida axborot texnologiyalarini rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta'minlash sohasida tartibga soluvchi va texnik hujjatlarni ishlab chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi adliya vaziri (keyingi o'rinlarda — Vazir deb yuritiladi) har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga davlat organlari va tashkilotlarining huquq ijodkorligi faoliyati va huquqni qo'llash amaliyoti holati to'g'risida axborot kiritadi.

Vazirlik qonun hujjatlarida belgilangan boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

Oldingi tahrirga qarang.

17) intellektual mulk sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish sohasida:

intellektual mulk sohasini rivojlantirish bo'yicha asosiy yo'nalishlarni ishlab chiqishni amalga oshiradi;

intellektual mulk sohasining rivojlanish holatini, shu jumladan mazkur sohadagi xalqaro reytinglar va indekslar mezonlari va metodologiyalari asosida har tomonlama tahlil qilish va baholashni amalga oshiradi;

intellektual mulk sohasida qonunchilikni va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha takliflarni tayyorlaydi;

intellektual mulk sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi ahvolini o'rganadi;

intellektual mulk sohasida huquqbuzarliklarni aniqlash va oldini olish bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi, soliq va boshqa davlat organlari bilan hamkorlik bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtiradi;

intellektual mulk sohasida normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llash amaliyotini o'rganadi va tahlil qiladi;

intellektual mulk sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyati samaradorligini nazorat qilish va baholashning amalga oshirilishini tashkil etadi.

(10-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-iyuldagi PQ-4380-sonli qaroriga asosan 17-kichik band bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 07/19/4380/3360-son)

Oldingi tahrirga qarang.

18) jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiladigan samarali fuqarolik-huquqiy mexanizmlarni joriy qilish va rivojlantirish sohasida:

fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilarini huquqiy himoya qilishning zamonaviy va samarali mexanizmlarini joriy qiladi;

xalqaro tajribani inobatga olgan holda fuqarolik-huquqiy munosabatlar asosida tuziladigan kelishuvlar bilan bog'liq masalalarni tartibga soluvchi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

jamiyatda yangi fuqarolik-huquqiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihalarini ishlab chiqadi;

elektron tijoratni huquqiy jihatdan tartibga solish bo'yicha samarali mexanizmlarni joriy qilish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ko'radi;

fuqarolik-huquqiy munosabatlarga oid milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga va eng yaxshi xorijiy amaliyotlarga muvofiqlashtirish ishlarini olib boradi;

fuqarolik-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan kelishuvlarga rioya etishda vujudga keladigan tizimli muammo va kamchiliklarni tahlil qiladi va ularni qonuniy bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi.

(10-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF-5997-sonli Farmoniga asosan 18-kichik band bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.05.2020-y., 06/20/5997/0634-son)

Oldingi tahrirga qarang.

19) siyosiy-huquqiy sohaga oid xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston Respublikasining o'rnini oshirish bo'yicha tizimli va izchil choralar ko'rish sohasida:

siyosiy-huquqiy sohaga oid xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston Respublikasiga berilgan baholarni tahlil qiladi;

davlat organlari va tashkilotlari, tadqiqot institutlari tomonidan siyosiy-huquqiy sohaga oid xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston Respublikasiga berilgan baholarga sabab bo'lgan omillar va muammolarni kompleks o'rganilishini va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilishini muvofiqlashtiradi, uslubiy rahbarlik va monitoringni amalga oshiradi;

siyosiy-huquqiy sohaga oid xalqaro reyting va indekslar doirasida baholanadigan yo'nalishlarda islohotlarni amalga oshirishni ko'zda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni reyting va indekslar metodologiyasidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining ulardagi o'rniga ehtimoliy ta'siri nuqtai nazaridan baholaydi;

siyosiy-huquqiy sohaga oid xalqaro reyting va indekslarni tuzuvchi xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yadi va hamkorlik olib boradi;

davlat organlari va tashkilotlarining siyosiy-huquqiy sohaga oid xalqaro reyting va indekslarni tuzuvchi xalqaro va xorijiy tashkilotlarni O'zbekistonda tegishli sohalarda amalga oshirilgan islohotlar va ularning natijalari haqida axborotlardan xabardor qilish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi, uslubiy rahbarlik va monitoringni amalga oshiradi.

(10-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi PF-6003-sonli Farmoniga asosan 19-kichik band bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.06.2020-y., 06/20/6003/0708-son)

Oldingi tahrirga qarang.

19¹) jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha choralar ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish sohasida:

advokatlik tuzilmalari va notarial idoralari uchun ichki nazorat qoidalarini belgilangan tartibda ishlab chiqadi va tasdiqlaydi, shuningdek ularga rioya etilishi ustidan monitoring va nazoratni amalga oshiradi;

advokatlik va notarial xizmatlar ko'rsatish, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati sohasida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish yuzasidan ehtimol tutilgan tavakkalchiliklarni baholaydi, tahlil qiladi va o'rganadi hamda aniqlangan tavakkalchiliklarni kamaytirishga doir choralar ko'radi;

tadbirkorlik subyektlari bo'lgan yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish (qayta ro'yxatdan o'tkazish) jarayonida ular tomonidan taqdim etilgan o'zlarining benefitsiarlari to'g'risidagi ma'lumotlar asosida yuridik shaxslarning benefitsiar mulkdorlari reyestrini shakllantiradi va yuritadi;

belgilangan tartibda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikda ishtirok etadi;

Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha Yevroosiyo guruhi to'g'risidagi Bitimdan kelib chiquvchi majburiyatlarning bajarilishini ta'minlaydi;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari buzilganligi aniqlangan taqdirda, qonunchilik hujjatlariga muvofiq choralar qo'llaydi;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish masalalari bo'yicha maxsus vakolatli davlat organi bilan o'zaro hamkorlikni amalga oshiradi.

(10-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyundagi PF-6252-son Farmoniga asosan 19¹-kichik band bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.06.2021-y., 06/21/6252/0617-son)

Oldingi tahrirga qarang.

20) normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining tartibga solish ta'sirini baholash sohasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish sohasida:

davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlarning tartibga solish ta'sirini baholash bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtiradi, tahlil qiladi va ularga uslubiy yordam ko'rsatadi;

normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining tartibga solish ta'sirini baholaydi;

davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlardagi tartibga solish ta'sirini baholashga mas'ul bo'lgan xodimlarining ro'yxatini shakllantiradi, ularning malakasini oshirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarini tartibga solish ta'sirini baholash sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish, shuningdek, xalqaro standartlarni va ilg'or xorijiy amaliyotni joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarini tartibga solish ta'sirini baholash sohasidagi qoidabuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha ta'sir choralari ko'radi;

tartibga solish ta'sirini baholash tizimining holati bo'yicha axborotni ommaviy axborot vositalarida e'lon qiladi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

21) qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning o'z vaqtida, to'liq va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash yuzasidan, shu jumladan Hisob palatasi bilan birgalikda sohalar, hududlar va idoralar kesimida manzilli va tematik tahliliy o'rganishlarni olib borish va joylardagi holat monitoringini yuritish sohasida:

qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar o'z vaqtida ijro etilishining "Ijro.gov.uz" tizimida nazoratini olib boradi va "Ijro.gov.uz" tizimini yuritadi;

"Ijro.gov.uz" tizimida nazoratga olinadigan topshiriqlarni kiritadi, mazkur topshiriqlardan kelib chiqqan holda mas'ul ijrochilar va bajarish muddatlarini belgilaydi, ular tomonidan kiritilgan ma'lumotlar to'liqligi va haqqoniyligini tekshiradi, shuningdek, qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarda belgilangan ijro muddatlarini uzaytirish haqidagi takliflar asoslilikini o'rganadi;

qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijro holati to'g'risidagi ma'lumotni har oyda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga kiritib boradi;

qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi bo'yicha yillik manzilli va tematik tahliliy o'rganishlar dasturi loyihasini ishlab chiqadi hamda tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbariga kiritadi;

o'rganishlar va monitoringlarda aniqlangan kamchiliklar va muammolarni tahlil qiladi hamda ularni bartaraf qilish va kelgusida takroran sodir etilishining oldini olish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

axborot kommunikatsiya texnologiyalari, shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlar, messengerlar, "Ijro.gov.uz" tizimining mobil ilovasi va boshqa qayta aloqa vositalari orqali joylardagi qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi holatini tizimli monitoring qiladi hamda natijasi bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolarni jalb qilgan holda jamoatchilik monitoringi va eshituvlarini tashkil qiladi;

qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijro holati yuzasidan o'tkazilgan manzilli va tematik o'rganishlar natijasi bo'yicha har chorakda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;

22) qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning amalda bajarilishiga to'sqinlik qilayotgan muammolar va omillarni aniqlash, ularni hal etish bo'yicha tegishli vazirlik va idoralar oldiga aniq masalalarni qo'yish, davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, sohaga xos bo'lmagan, takrorlanuvchi vazifa va funksiyalarini qisqartirish, ularda ortiqcha qog'ozbozlik va majlisbozlikka yo'l qo'ymaslik yuzasidan takliflar ishlab chiqish sohasida:

qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning amalda bajarilishiga to'sqinlik qilayotgan muammolar va omillarni aniqlaydi hamda ularning kelib chiqish sabablarini o'rganadi va tahlil qiladi;

aniqlangan muammolar va omillarni bartaraf etish bo'yicha tegishli davlat organlari va tashkilotlariga aniq tavsiyalar va ko'rsatmalar kiritadi;

davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlik holatini manzilli va tematik o'rganishlar, jamoatchilik monitoringi hamda jamoatchilik eshituvlari, shuningdek, vakolati doirasida boshqa vositalardan foydalangan holda tahlil qiladi;

manzilli va tematik o'rganishlar, jamoatchilik monitoringi hamda jamoatchilik eshituvlari orqali davlat organlari va tashkilotlarining sohaga xos bo'lmagan, takrorlanuvchi vazifa va funksiyalarini qisqartirish, ularda ortiqcha qog'ozbozlik va majlisbozlikka yo'l qo'ymaslik yuzasidan tahlil qiladi hamda natijasi bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

23) davlat organlari va tashkilotlariga qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi yuzasidan huquqiy-uslubiy ko'maklashish, ularning tegishli bo'linma rahbarlarini ijro intizomiga rioya etilishi bo'yicha o'qitishda ishtirok etish sohasida:

davlat organlari va tashkilotlariga qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi yuzasidan huquqiy-uslubiy ko'maklashishga mo'ljallangan metodik qo'llanmalar ishlab chiqadi;

davlat organlari va tashkilotlarining tegishli bo'linma rahbarlarini ijro intizomiga rioya etilishi bo'yicha o'qitishda ishtirok etadi.

(10-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoniga asosan 20 — 23-kichik bandlar bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son)

11. Vazirlikning markaziy apparati, hududiy va tarkibiy tuzilmalari funksiyalari, agar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki Vazirlar Mahkamasining qarorlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, Vazir tomonidan tasdiqlanadigan nizomlar va ustavlar bilan belgilanadi.

4-bob. Vazirlik va uning tuzilmalarining huquqlari hamda javobgarligi

1-§. Vazirlikning huquqlari va javobgarligi

12. Vazirlik o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga egadir:

1) o'z vakolati doirasida davlat organlari va tashkilotlari, jismoniy va yuridik shaxslar uchun majburiy bo'lgan, shu jumladan boshqa davlat organlari bilan birgalikda normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish;

2) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi va boshqa davlat organlari ko'rib chiqishi uchun qonun hujjatlarini va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish masalalari bo'yicha takliflar kiritish;

Oldingi tahrirga qarang.

2¹) davlat organlari va tashkilotlari tomonidan norma ijodkorligi sohasida, ma'muriy islohotlar konsepsiyasi doirasida, shuningdek huquqni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq vazifalar ijro qilinmagan taqdirda ularning mansabdor shaxslarini javobgarlikka tortish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish;

(12-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF-5997-sonli Farmoniga asosan 2¹-band bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.05.2020-y., 06/20/5997/0634-son)

3) davlat organlari va tashkilotlarida:

norma ijodkorligi faoliyati, huquqiy ishlar, yuridik xizmatlar faoliyati, normativ-huquqiy hujjatlarni e'lon qilish va manfaatdor shaxslar e'tiboriga yetkazish holatini;

huquqni qo'llash amaliyoti, fuqarolar huquqlarini ta'minlash bo'yicha qonun hujjatlari ijrosi, davlat xizmatlarini ko'rsatishning belgilangan tartibiga rioya etish holatini, shu jumladan joylarga chiqqan holda tekshirish;

4) nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan qonun hujjatlari va ta'sis hujjatlariga rioya qilinishi, shuningdek ularga ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanishini tekshirish;

Oldingi tahrirga qarang.

5) vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlarga bajarilishi majburiy bo'lgan:

davlat ro'yxatidan o'tmagan normativ-huquqiy tusga ega bo'lgan hujjatlarni bekor qilish va ijrodan chaqirib olish to'g'risida;

qonun hujjatlariga muvofiq bo'lmagan normativ-huquqiy hujjatlarni bekor qilish, to'xtatib turish (to'liq yoki qisman) yoxud ularni qonun hujjatlariga muvofiqlashtirish to'g'risida;

ishlab chiqish muddatini ko'rsatgan holda normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish, ular tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarga rasmiy sharh berish zarurligi to'g'risida;

huquqni qo'llash amaliyoti, fuqarolarning huquqlariga rioya qilish bo'yicha qonun hujjatlarini bajarish holatini tekshirish davomida aniqlangan huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslik, ularning sodir etilishiga ko'maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida;

davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmati faoliyati, ma'muriy tartib-taomillar va davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasida aniqlangan huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslik, ularning sodir etilishiga ko'maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida;

davlat boshqaruvi organlari tomonidan huquqiy monitoring yakunlari bo'yicha o'z vaqtida taqdim etilmagan, noto'g'ri, ishonchsiz yoki to'liq bo'lmagan axborot taqdim etilgan taqdirda, ularga nisbatan huquqiy monitoringni o'tkazishdagi qoidabuzarliklarni bartaraf etish to'g'risida;

Oldingi tahrirga qarang.

ma'muriy tartib-taomillar sohasida aniqlangan qonun buzilishlari, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida;

(12-band 5-kichik bandining sakkizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son)

Oldingi tahrirga qarang.

normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarini tartibga solish ta'sirini baholash sohasida aniqlangan qoidabuzarliklarni, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida taqdimnomalar;

qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari ijrosini ta'minlash hamda "Ijro.gov.uz" tizimiga zarur ma'lumotlarni o'z vaqtida va to'g'ri kiritish yuzasidan ko'rsatmalar kiritish.

(12-bandning 5-kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoniga asosan to'qqizinchi va o'ninchi xatboshilar bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son)

6) nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatida aniqlangan qonun hujjatlari va ta'sis hujjatlari buzilishlarini bartaraf etish to'g'risida nodavlat notijorat, shu jumladan diniy tashkilotlariga, advokatlik tuzilmalariga bajarilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish;

7) qonun hujjatlari buzilishiga yo'l qo'ymaslik haqida mansabdor shaxslarini yozma ravishda ogohlantirish;

8) fuqarolarning qonuniy huquq va erkinliklari, yuridik xizmatlarni faoliyati sohasidagi qonun hujjatlari buzilishi holatlari aniqlaganda hamda adliya organlarining qonuniy talablari bajarilmaganda, aybdor mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risida tegishli davlat organlariga takliflar kiritish;

9) davlat, yuridik va jismoniy shaxslar manfaatlarini ko'zlab sudlarga davlat boji to'lamasdan arizalar va da'volarni kiritish;

10) normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida zarur statistik ma'lumotlarni, tahliliy materiallarni, hujjatlarni, boshqa axborotlarni, qarorlar va boshqa hujjatlarni, ma'lumotlarni davlat organlari va tashkilotlaridan bepul tarzda so'rash va olish;

11) nodavlat notijorat, shu jumladan diniy tashkilotlardan axborot, hujjatlar va ma'lumotlar, shuningdek ularning rahbarlari va mas'ul shaxslaridan tushuntirishlarni talab qilish va olish;

12) tekshirish o'tkazish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o'rganish, shuningdek Vazirlik vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha axborot-tahliliy materiallarni tayyorlash uchun vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, ilmiy va ta'lim muassasalari va boshqa tashkilotlar vakillarini chaqirish va jalb etish;

13) tekshirish va tahlil davomida aniqlangan holatlarga aniqlik kiritish maqsadida davlat organlari va boshqa tashkilotlarning mansabdor shaxslari hamda xodimlarini chaqirish, qonun hujjatlarining buzilishi holatlari yuzasidan og'zaki va yozma tushuntirishlar talab qilish;

14) davlatga tegishli Vazirlikning va unga idoraviy mansub tuzilmalarning mol-mulkini o'zining tashkiliy tuzilmasi doirasida bepul foydalanish huquqi bilan bir tarkibiy tuzilmadan boshqa tuzilmaga belgilangan tartibda o'tkazish;

15) Vazirlik va unga idoraviy mansub tashkilotlar xodimlari tomonidan o'z sohasida ular faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha parametrlar bajarilishini hisobga olgan holda ularni moddiy rag'batlantirish tartibi, miqdorlari va shartlarini belgilash;

16) budjetdan tashqari mablag'larni hamda adliya organlari va muassasalarining depozit hisob raqamlarida joylashgan mablag'larni O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining depozit

raqamlarida milliy va xorijiy valyutada joylashtirish. Bunda, mablag'larni joylashtirishdan olingan daromad adliya organlari va muassasalarining budjetdan tashqari hisob raqamalariga ushbu daromadlar moddiy-texnik bazani, ijtimoiy rivojlantirishga va xodimlarini moddiy rag'batlantirish hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlarga yo'naltirgan holda o'tkaziladi;

17) Vazirlik vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha idoralararo tUSDagi xalqaro shartnomalarni belgilangan tartibda tuzish;

18) Vazirlik vakolatiga tegishli bo'lgan masalalar bo'yicha xalqaro darajada O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini belgilangan tartibda ifodalash;

19) qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlariga zid bo'lgan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni belgilangan tartibda davlat reyestrIDan chiqarish;

20) jismoniy va yuridik shaxslarning o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to'g'risida murojaatlarni ko'rib chiqish;

21) Vazirlik vakolatiga kiruvchi masalalarni ko'rib chiqishda davlat organlari va tashkilotlarining hay'at majlislarida ishtirok etish;

22) xorijiy davlatlarning sudlari va xalqaro arbitrajlarda O'zbekiston Respublikasining huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor huquqiy nizolar bo'yicha da'vogar va javobgarning vakili sifatida ishtirok etish;

23) advokatlar malaka komissiyalariga advokatlarni intizomiy javobgarlikka tortish masalasini kiritish;

Oldingi tahririga qarang.

24) advokatlar va xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga berilgan litsenziyalarning amal qilishini to'xtatib turish va tugatish;

(12-bandning 24-kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son)

25) yuridik xizmat xodimining attestatsiyadan o'tganligi to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini tugatish;

26) nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan o'tkaziladigan tadbirlarda (konferensiyalar, seminarlar, treninglar, yig'ilishlar, aksiyalar va shu kabilarda) ishtirok etish;

27) nodavlat notijorat, shu jumladan diniy tashkilotlar tomonidan rejalashtirilgan tadbirlarni o'tkazilishini taqiqlash yuzasidan qaror qabul qilish;

28) siyosiy partiyalarning ustavlarida nazarda tutilgan faoliyatini davlat tomonidan moliyalashtirishni to'xtatib turish yoki tugatish to'g'risida qaror qabul qilish;

29) nodavlat notijorat tashkilotlarning chet el fuqarolari bo'lgan xodimlarini, shuningdek ularning qaramog'idagi oila a'zolarini, ular tomonidan O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari buzilgan hollarda akkreditatsiyadan mahrum qilish;

30) o'z vakolatlari doirasida xorijiy davlatlar organlari va xalqaro tashkilotlar bilan to'g'ridan to'g'ri aloqalar o'rnatish;

31) adliya organlari va muassasalari faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tegishli tuzilmalar tashkil etish, ularni qayta tashkil etish va tugatish, shuningdek ularning ustavlari (nizomlari)ni tasdiqlash;

32) davlat siri va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirga rioya qilish sharti bilan tekshirishni o'tkazish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va materiallar bilan tanishish, davlat organlarining elektron bazalaridan (banklaridan) foydalanish uchun xizmat guvohnomasini ko'rsatgan holda davlat organlari va boshqa tashkilotlarning hududlariga va binolariga kirish;

33) o‘z vakolati doirasida ma‘muriy javobgarlikni keltirib chiqaradigan holatlar yuzasidan ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risida bayonnomalar tuzish;

Oldingi tahrirga qarang.

34) davlat boshqaruvi organlari tomonidan o‘tkaziladigan qonun hujjatlarining huquqiy monitoringida ishtirok etish.

(12-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-noyabrdagi PQ-4505-sonli qaroriga asosan 34-kichik band bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 02.11.2019-y., 07/19/4505/3987-son)

Vazirlik qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

13. Vazirlikning markaziy apparati, hududiy va tarkibiy tuzilmalarining huquqlari, agar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, Vazir tomonidan tasdiqlanadigan nizomlar (ustavlar) bilan belgilanadi.

14. Vazirlik:

o‘ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning samarali bajarilishi, shuningdek, tegishli sohadagi davlat siyosatining samarali amalga oshirilishi;

o‘z faoliyati bilan bog‘liq prognoz ko‘rsatkichlarga so‘zsiz erishilishini ta‘minlash;

Oldingi tahrirga qarang.

Vazirlar Mahkamasiga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritiladigan normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar loyihalari, shuningdek, Vazirlik tomonidan qabul qilinadigan buyruqlar amalga oshirilishining sifati, pirovard natijalari va oqibatlari;

(14-bandning to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi PF-5650-sonli Farmoni tahririda)

o‘z faoliyati sohasini rivojlantirish bo‘yicha dasturlar, tadbirlar rejalari, “yo‘l xaritalari” va boshqa dasturiy hujjatlarning samarali amalga oshirilishi uchun javobgardir.

2-§. Vazirlik markaziy apparatining javobgarligi

15. Vazirlikning markaziy apparati:

Vazirlikning tarkibiy va hududiy tuzilmalari bilan birgalikda Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarning samarali bajarilishini ta‘minlash;

Vazirlik faoliyati bilan bog‘liq prognoz ko‘rsatkichlarga erishishni ta‘minlash bo‘yicha Vazirlik markaziy apparati tuzilmalarining ishini tashkil etish;

Oldingi tahrirga qarang.

Vazirlik tomonidan ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritiladigan normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar loyihalari, shuningdek Vazirlik tomonidan qabul qilinadigan buyruqlarning tayyorlanishi va ekspertizadan o‘tkazilishi sifati;

(15-bandning to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi PF-5650-sonli Farmoni tahririda)

o‘z faoliyat sohasini rivojlantirish bo‘yicha dasturlar, tadbirlar rejalari, “yo‘l xaritalari” va boshqa dasturiy hujjatlarning tarkibiy va hududiy tuzilmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishini tashkil etish uchun javobgardir.

3-§. Vazirlikning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, tuman (shahar)lardagi hududiy tuzilmalarining javobgarligi

16. Vazirlikning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar (shaharlar)dagi hududiy tuzilmalari:

Vazirlikning tegishli hududiy tuzilmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalar sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini ta‘minlash;

Vazirlikning tegishli hududiy tuzilmasi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlarga erishishni ta‘minlash;

Vazirlikka kiritilayotgan hujjatlar loyihalari va takliflar, shuningdek, Vazirlikning hududiy tuzilmalari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning amalga oshirilishi sifati, pirovard natijalari va oqibatlari;

huquqni qo‘llash amaliyotida aniqlangan muammolarni har tomonlama va chuqur tahlil qilish asosida o‘z hududida tegishli sohani rivojlantirishga doir takliflarni tayyorlash;

o‘z faoliyati sohasini rivojlantirish, muammoli masalalarni hal qilish bo‘yicha dasturlar, tadbirlar rejalari, “yo‘l xaritalari” va boshqa dasturiy hujjatlarni tegishli hududda samarali amalga oshirilishi uchun javob beradi.

5-bob. Vazirlik rahbarlarining asosiy funksional vazifalari

17. Quyidagilar Vazirlik birinchi rahbari — vazirning asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

1) Vazirlik faoliyatini umumiy boshqarishni amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan Vazirlikka yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarishni tashkillashtirish;

2) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan tasdiqlangan Vazirlik faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha konsepsiyalar, kompleks dasturlar va kompleks tadbirlar ijrosini tanqidiy va chuqur tahlil qilish;

3) Vazirlik, uning tegishli tarkibiy va hududiy tuzilmalari faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlariga erishishni so‘zsiz ta‘minlash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qabul qilish;

Oldingi tahrirga qarang.

4) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi tarkibiy bo‘linmalari va Vazirlar Mahkamasining komplekslari hamda Vazirlik faoliyati sohasiga kiradigan masalalar bo‘yicha tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlik qilish, Vazirlar Mahkamasi yig‘ilishlarida va uning Prezidiumidagi masalalarni ko‘rib chiqishda qatnashish;

(17-bandning 4-kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi PF-5650-sonli Farmoni tahririda)

5) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri topshiriqlarini bajarish;

6) o‘z o‘rinbosarlari vakolatlarini belgilash, ular o‘rtasida vazifalarni taqsimlash, Vazirlikning boshqa mansabdor shaxslari vakolatlarini belgilash, Vazirlik faoliyatining alohida uchastkalariga rahbarlik qilish uchun o‘z o‘rinbosarlari va boshqa mansabdor shaxslarning shaxsiy mas‘uliyati darajasini belgilash;

7) Vazirlik faoliyati rejalashtirilishini tashkil etish, Vazirlikning davriy ish rejalarni tasdiqlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni ta‘minlash;

8) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va topshiriqlari ijrosini tashkil etish va monitoringini olib borishning amaliy tizimini yaratish, Vazirlik faoliyatida ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha kompleks amaliy chora-tadbirlarni bajarish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari samarali va natijali ijro etilishi, shuningdek

ijro intizomi mustahkamlanishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchilarining, Vazirlar Mahkamasi va uning komplekslari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda barcha darajalardagi hokimliklar rahbarlarining shaxsiy javobgarligi to‘g‘risida” 2017-yil 11-apreldagi PQ-2881-son [qaroriga](#) va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq topshiriqlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun tarkibiy va hududiy tuzilmalar rahbarlarining shaxsiy mas’uliyatini oshirish choralari ko‘rish;

9) Vazirlik xodimlarini tizimli qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;

10) Vazirlik tizimida kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, ularning mutaxassisliklariga (yurisprudensiya, iqtisod, moliya, psixologiya, tashqi aloqalar, filologiya va h.k) talablar belgilash, samarali faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, Vazirlikning kadrlar zaxirasini shakllantirish;

Oldingi tahrirga qarang.

11) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi nomenklaturasiga kiradigan bo‘sh lavozimlarga taklif etilgan kadrlarning, shuningdek Vazirlikka ishga qabul qilinayotgan boshqa kadrlarning professionalligi va o‘z ishini bilishi, yuksak darajadagi ishchanlik va ma’naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan choralarni amalga oshirish;

(17-bandning 11-kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi PF-5650-sonli Farmoni tahririda)

Oldingi tahrirga qarang.

12) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi topshiriqlariga va o‘z tashabbusiga ko‘ra normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari sifatli ishlab chiqilishini, ularni “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi, “Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining [Reglamenti](#) hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining [Reglamenti](#) talablariga qat’iy muvofiq ravishda o‘z vaqtida Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini tashkil etish, ularning Vazirlar Mahkamasi apparatida puxta ishlashida, Vazirlar Mahkamasida himoya qilinishi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasida ko‘rib chiqilishida ishtirok etish;

(17-bandning 12-kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi PF-5650-sonli Farmoni tahririda)

13) “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi, “Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga va Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining qonun loyahasini tayyorlash faoliyatining Namunaviy reglamentiga muvofiq Vazirlikning qonun loyihalarini tayyorlash faoliyatini tashkil etish;

14) o‘z vakolati doirasida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish, zarur hollarda davlat boshqaruvining boshqa organlari bilan birgalikda qarorlar va boshqa hujjatlarni birgalikda qabul qilish;

15) Vazirlik rahbarlari va xodimlari xizmat safarlarini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “[Mansabdor shaxslarning xorijiy mamlakatlarga chiqish tartibini takomillashtirish choralari to‘g‘risida](#)” 2014-yil 5-martdagi PQ-2142-son va “[Xorijiy xizmat safarlarida bo‘lish samaradorligi va xorijiy delegatsiyalarning O‘zbekiston Respublikasiga tashriflarini tashkil etish uchun mansabdor shaxslarning shaxsiy mas’uliyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida](#)” 2017-yil 3-avgustdagi PQ-3170-son qarorlari talablariga muvofiq tashkil etish, xizmat safarlarining

asoslanganligi, samaradorligi va natijadorligini, safar uchun ajratiladigan mablag'lardan maqsadli va oqilona foydalanishni ta'minlash;

16) o'z o'rinbosarlari va hududiy tuzilmalar, shuningdek idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlari faoliyati samaradorligini va natijadorligini muntazam tanqidiy tahlil qilish, Vazirlik hay'ati majlislarida ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, ularning yakunlari bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rish;

17) Vazirlikning hududiy va tarkibiy tuzilmalarining rahbarlari faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

18) Vazirlik xodimlarini rag'batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini hal etish, o'zining o'rinbosarlarini rag'batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish, shu jumladan, ularning egallab turgan lavozimda qolishi maqsadga muvofiqligi masalasini ko'rib chiqish bo'yicha takliflarni kiritish, ularning shaxsiy mas'uliyatini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rish;

19) Vazirlik xodimlarining Davlat boshqaruvi organlari xodimlarining odob-axloq qoidalari talablariga rioya qilishi ustidan nazoratni tashkil etish;

20) huquqni qo'llash amaliyotini va qonun hujjatlarini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi **Qonuni** talablariga muvofiq Vazirlik tizimida korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish choralarini ko'rish, shuningdek ularning sodir etilishiga ko'maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish, bartaraf etish;

21) Vazirlik, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalari ish faoliyatining zamonaviy shakllarini joriy etishni ta'minlash;

22) qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda va tartibda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha samarali ishlarni tashkil etish, aholi bilan to'g'ridan to'g'ri va ochiq muloqotni yo'lga qo'yish, jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslar vakillarini muntazam ravishda shaxsan qabul qilish, shu jumladan, joylarga borib qabul qilish;

23) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan samarali hamkorlik qilishni tashkil etish, Vazirlikning rahbarlari va xodimlarini ularning faoliyatida faol ishtirok etishini, jismoniy va yuridik shaxslarning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasidan kelib tushgan murojaatlari o'z vaqtida va to'laqonli ko'rib chiqilishini ta'minlash;

24) adliya organlari va muassasalari xodimlariga belgilangan tartibda martaba darajalarini berish hamda oliy martaba darajalari berish uchun ularni, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa davlat organlari xodimlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga taqdim etish;

25) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimidagi moliyaviy mutanosiblikni ta'minlash uchun adliya organlari va muassasalarining budjetdan tashqari mablag'larini qayta taqsimlash;

26) davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish.

18. Quyidagilar vazir o'rinbosarlarining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

1) Vazirlik rahbari vaqtincha bo'lmaganida Vazir buyrug'i asosida uning vazifalarini bajarish;

2) Vazirlikning mutasaddilik qilinadigan tarkibiy tuzilmalari faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va ularga bevosita rahbarlik qilish, ularning xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlash;

3) Vazirlik faoliyatining mutasaddilik qilinadigan yo'nalishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan tasdiqlangan Vazirlik faoliyatini

yanada takomillashtirish bo'yicha konsepsiyalar, kompleks dasturlar va kompleks tadbirlar ijrosini tanqidiy va chuqur tahlil qilish;

4) mutasaddilik qilinadigan tarkibiy tuzilmalar tomonidan prognoz ko'rsatkichlarga erishishni so'zsiz ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rish, tuzilmalar rahbarlarining hisobotlarini muntazam eshitish va ushbu ko'rsatkichlarga erishish uchun ularning shaxsiy javobgarligini oshirish;

5) mutasaddilik qilinadigan tarkibiy tuzilmalarning rejalarini tasdiqlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni ta'minlash;

6) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va topshiriqlari ijrosini ta'minlash, Vazirlikning mutasaddilik qilinadigan tarkibiy tuzilmalarida ijro intizomi bo'yicha kompleks amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari samarali va natijali ijro etilishi, shuningdek ijro intizomi mustahkamlanishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchilarining, Vazirlar Mahkamasi va uning komplekslari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shuningdek barcha darajalardagi hokimliklar rahbarlarining shaxsiy javobgarligi to'g'risida" 2017-yil 11-apreldagi PQ-2881-son [qarori](#) va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq topshiriqlar o'z vaqtida va sifatli ijro etilishi uchun tarkibiy tuzilmalar rahbarlarining shaxsiy mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlarini ko'rish;

7) Vazirlik hay'ati, Vazirning buyruqlari va topshiriqlari o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash;

8) mutasaddilik qilinadigan tarkibiy tuzilmalarda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish bo'yicha Vazirga takliflar taqdim etish, ularning professionalligi, o'z ishini bilishi, yuksak darajadagi ishchanlik va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lishini ta'minlash, ularning kasbiy malakasini oshirish chora-tadbirlarini ko'rish, mutasaddilik qilinadigan tarkibiy tuzilmalarda kadrlar zaxirasini shakllantirish;

Oldingi tahrirga qarang.

9) mutasaddilik qilinadigan tarkibiy tuzilmalar tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari sifatli ishlab chiqilishini tashkil etish, Vazirlikning mutasaddilik qilinadigan tarkibiy tuzilmalarida tayyorlangan hujjatlar loyihalarini ko'rib chiqish va ular keyinchalik Vazir tomonidan ko'rib chiqilishi, imzolanishi (viza qo'yilishi) uchun viza qo'yish, ularning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Reglamenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Reglamenti talablariga qat'iy muvofiq ravishda Vazirlar Mahkamasiga o'z vaqtida kiritilishini ta'minlash, shuningdek Vazirlar Mahkamasi apparatida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda Vazirning topshirig'iga binoan ishtirok etish;

(18-bandning 9-kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi PF-5650-sonli Farmoni tahririda)

10) Vazirlikka taqdim etilgan takliflar va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari to'liq va o'z vaqtida ko'rib chiqilishini ta'minlash, ularni puxta huquqiy ekspertizadan o'tkazish;

11) xizmat safarlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "[Mansabdor shaxslarning xorijiy mamlakatlarga chiqish tartibini takomillashtirish choralari to'g'risida](#)" 2014-yil 5-martdagi PQ-2142-son va "[Xorijiy xizmat safarlarida bo'lishning samaradorligi va xorijiy delegatsiyalarning O'zbekiston Respublikasiga tashrifini tashkil etish uchun mansabdor shaxslarning shaxsiy javobgarligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida](#)" 2017-yil 3-avgustdagi PQ-3170-son qarorlari talablariga muvofiq amalga oshirish, xizmat safarlarining asoslanganligi, samaradorligi va natijadorligini, safar uchun ajratiladigan mablag'lardan maqsadli va oqilona foydalanishni ta'minlash;

12) mutasaddilik qilinadigan tarkibiy tuzilmalar rahbarlari va xodimlari faoliyati samaradorligi va natijadorligini muntazam tanqidiy tahlil qilish, Vazirlik hay'ati majlislarida ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, ularning yakunlari bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rish;

13) sohaga oid masalalar bo'yicha Vazirlik faoliyatini takomillashtirishga doir amaliy chora-tadbirlar ko'rish, qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va ularni Vazirlik rahbariyatiga kiritish;

14) mutasaddilik qilinadigan tarkibiy tuzilmalar rahbarlari va xodimlarini rag'batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish, shu jumladan, ularning egallab turgan lavozimda qolishi maqsadga muvofiqligi masalasini ko'rib chiqish bo'yicha Vazirga taklif kiritish, funksional vazifalar va yuklangan vazifalar bajarilishi uchun ularning shaxsiy mas'uliyatini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rish;

15) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi xodimlarining Odob-axloq qoidalari talablariga rioya qilish;

16) "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi **Qonuni** talablariga muvofiq Vazirlik tizimida korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish choralarini ko'rish, shuningdek huquqni qo'llash amaliyotini va qonun hujjatlarini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ularning sodir etilishiga ko'maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish;

17) davlat xizmatlari samaradorligini, ulardan erkin foydalanishni va ko'rsatilish sifatini oshirish hamda "Elektron hukumat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi **Qonuni** amalga oshirish doirasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;

18) jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishga doir samarali ishlarni tashkil etish, aholi bilan to'g'ridan to'g'ri va ochiq muloqotni yo'lga qo'yish, qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda va tartibda jismoniy va yuridik shaxslar vakillarini muntazam ravishda shaxsan qabul qilish, shu jumladan, joylarga borib qabul qilish;

19) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan samarali hamkorlikni, ularning faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" 2016-yil 28-dekabrda PF-4904-son **Farmoniga** muvofiq faol ishtirok etish, jismoniy va yuridik shaxslarning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasidan kelib tushgan barcha murojaatlarini o'z vaqtida va to'liq ko'rib chiqilishini ta'minlash;

20) davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish.

19. Quyidagilar Vazirlik markaziy apparati tarkibiy tuzilmalari rahbarlarining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

1) tarkibiy tuzilmalar faoliyatiga bevosita umumiy rahbarlik qilish, ushbu tuzilmalarga yuklangan vazifalar va funksiyalar bajarilishini tashkil etish;

2) tegishli tarkibiy tuzilmalar va idoraviy mansub tashkilotlar faoliyatini o'z vakolatlari doirasida muvofiqlashtirish;

3) Vazirlik markaziy apparati tarkibiy tuzilmasi xodimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va topshiriqlari ijrosini ta'minlash, ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha kompleks amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari samarali va natijali ijro etilishi, shuningdek ijro intizomi mustahkamlanishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchilarining, Vazirlar Mahkamasi va uning komplekslari, davlat va xo'jalik boshqaruvi

organlari, shuningdek barcha darajalardagi hokimliklar rahbarlarining shaxsiy javobgarligi to'g'risida" 2017-yil 11-apreldagi PQ-2881-son qarori va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq topshiriqlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun tarkibiy tuzilmalar xodimlarining shaxsiy mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlarini ko'rish;

4) Vazirlik hay'ati qarorlari, Vazir va uning o'rinbosarlari buyruqlari hamda topshiriqlari o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash;

5) tarkibiy tuzilmalarning har choraklik ish rejalari ishlab chiqilishini ta'minlash, ularni tasdiqlash uchun kiritish, ularda ko'rsatilgan vazifalar va tadbirlar o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash;

6) tarkibiy tuzilmalarga yuklangan vazifalar bajarilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish, Vazirlik hududiy tuzilmalari va idoraviy mansub tashkilotlar faoliyatiga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish;

7) tarkibiy tuzilmalar faoliyati sohasiga oid qonun hujjatlari va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va ularni ko'rib chiqish uchun Vazirlik rahbariyatiga kiritish;

8) tarkibiy tuzilmalarda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishda Vazir o'rinbosarlariga takliflar taqdim etish, professionalligi, o'z ishini bilishi, amaliy tajribaga, yuksak ishchanlik va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega ekanligi kafolatini ta'minlash, ularning kasb malakasini oshirish choralarini ko'rish, tarkibiy tuzilmalarda kadrlar zaxirasini shakllantirish;

Oldingi tahrirga qarang.

9) normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari tarkibiy tuzilmalar tomonidan sifatli ishlab chiqilishini tashkil etish, Vazirlikning tarkibiy tuzilmalarida tayyorlangan hujjatlar loyihalarini keyinchalik Vazirlik rahbariyati tomonidan ko'rib chiqish, imzolash (viza qo'yish) uchun ko'rib chiqish va viza qo'yish, ularning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Reglamenti va Vazirlar Mahkamasi Reglamenti talablariga qat'iy muvofiq ravishda Vazirlar Mahkamasiga o'z vaqtida kiritilishini ta'minlash, Vazirlik rahbariyatining topshirig'i bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini Vazirlar Mahkamasi apparatida ishlab chiqishda ishtirok etish;

(19-bandning 9-kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi PF-5650-sonli Farmoni tahririda)

10) tarkibiy tuzilmaga taqdim etilgan takliflar va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini to'liq va har tomonlama ko'rib chiqish, ularni puxta huquqiy ekspertizadan o'tkazish;

11) xizmat safarlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mansabdor shaxslarning xorijiy mamlakatlarga chiqish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2014-yil 5-martdagi PQ-2142-son va "Xorijiy xizmat safarlarida bo'lishning samaradorligi va xorijiy delegatsiyalarning O'zbekiston Respublikasiga tashrifini tashkil etish uchun mansabdor shaxslarning shaxsiy javobgarligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 3-avgustdagi PQ-3170-son qarorlari talablariga muvofiq amalga oshirish, xizmat safarlari asoslanganligi, samaradorligi va natijadorligini, safar uchun ajratiladigan mablag'lardan maqsadli va oqilona foydalanishni ta'minlash;

12) tarkibiy tuzilmalar xodimlari faoliyati samaradorligi va natijadorligini muntazam ravishda tanqidiy tahlil qilish, yig'ilishlarda ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, ularning yakunlari bo'yicha zarur chora-tadbirlarni ko'rish;

13) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi xodimlarining Odob-axloq qoidalari talablariga rioya etish;

14) "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga muvofiq tarkibiy tuzilmalarda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish

choralarini ko'rish, shuningdek huquqni qo'llash amaliyotini va qonun hujjatlarini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ularning sodir etilishiga ko'maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish, bartaraf etish;

15) jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish, aholi bilan to'g'ridan to'g'ri va ochiq muloqotni yo'lga qo'yish, muntazam ravishda shaxsiy, shu jumladan sayyor qabullar o'tkazish;

16) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan samarali hamkorlik qilish, ularning faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" 2016-yil 28-dekabrda PF-4904-son Farmoniga muvofiq faol ishtirok etish, jismoniy va yuridik shaxslarning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasidan tushgan murojaatlarini o'z vaqtida va to'laqonli ko'rib chiqish;

17) davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish.

20. Quyidagilar Vazirlikning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar (shaharlar) va Toshkent shahridagi hududiy tuzilmalari rahbarlarining asosiy funksional majburiyatlari hisoblanadi:

1) Vazirlikning tegishli tuzilmasi faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmoni va qarori, Vazirlar Mahkamasining qarori va boshqa qonun hujjatlari, shuningdek Vazirlik hujjatlari bilan ushbu tuzilmaga yuklangan vazifalar va funksiyalar bajarilishini tashkil etish;

2) hududiy tuzilmalar faoliyati bilan bog'liq prognoz ko'rsatkichlarga erishishni so'zsiz ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qabul qilish;

3) hududiy tuzilma xodimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari va topshiriqlari ijrosini ta'minlash, ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha kompleks amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari samarali va natijali ijro etilishi, shuningdek, ijro intizomi mustahkamlanishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchilarining, Vazirlar Mahkamasi va uning komplekslari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shuningdek, barcha darajalardagi hokimliklar rahbarlarining shaxsiy javobgarligi to'g'risida" 2017-yil 11-aprelda PQ-2881-son qarori va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq topshiriqlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun hududiy tuzilmalar xodimlarining shaxsiy mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlarini ko'rish;

4) Vazirlik hay'ati qarorlari, Vazir va uning o'rinbosarlari buyruqlari hamda topshiriqlari o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash;

5) Vazirlik faoliyati sohasiga kiradigan masalalar yuzasidan mahalliy davlat hokimiyati organlari va kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar bilan hamkorlik qilish;

6) tegishli tuzilmaning mansabdor shaxslarining vakolatlarini belgilash, hududiy tuzilma faoliyatining alohida tarmoqlariga rahbarlik qilish uchun ularning shaxsiy javobgarligi darajasini belgilash;

7) hududiy tuzilma faoliyatini rejalashtirishni tashkil etish, hududiy tuzilmaning har choraklik ish rejalarini tasdiqlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni ta'minlash;

8) hududiy tuzilmada kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, ularning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, hududiy tuzilma kadrlar zaxirasini shakllantirish;

9) Vazirlik rahbari nomenklaturasiga kiradigan bo'sh lavozimlarga taklif etilgan kadrlarning, shuningdek hududiy tuzilmaga ishga qabul qilinayotgan boshqa kadrlarning

professionalligi, o'z ishini bilishi, amaliy tajribaga, yuksak darajada ishchanlik va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega ekanligi kafolatini ta'minlash;

10) hududiy tuzilma xodimlarini rag'batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini hal qilish, o'z o'rinbosarlarini rag'batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish to'g'risida takliflar kiritish, shu jumladan, ular egallab turgan lavozimda qolishi maqsadga muvofiqligiga doir masalalarni ko'rib chiqish, ularning shaxsiy mas'uliyatini oshirish bo'yicha muntazam chora-tadbirlar ko'rish;

11) hududiy tuzilma xodimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi xodimlarining Odob-axloq qoidalari talablariga rioya qilishini ta'minlash;

12) "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi [Qonuni](#) talablariga muvofiq hududiy tuzilmada korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish choralari ko'rish, shuningdek huquqni qo'llash amaliyotini va qonun hujjatlarini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ularning sodir etilishiga ko'maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish, bartaraf etish;

13) hududiy tuzilma xodimlari faoliyatining samaradorligi va natijadorligini tizimli ravishda tanqidiy tahlil qilish, yig'ilishlarda ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, ularning yakunlari bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rish;

14) hududiy tuzilmalar faoliyatiga oid masalalar bo'yicha qonun hujjatlarini takomillashtirish, shuningdek davlat xizmatlari samaradorligi, sifati va ulardan erkin foydalanishni oshirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish hamda ularni ko'rib chiqish uchun Vazirlik rahbariyatiga kiritish;

15) jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish, aholi bilan to'g'ridan to'g'ri va ochiq muloqotni yo'lga qo'yish, muntazam ravishda shaxsiy, shu jumladan sayyor qabullar o'tkazish;

16) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan samarali hamkorlik qilish, ularning faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" 2016-yil 28-dekabrda PF-4904-son [Farmoniga](#) muvofiq faol ishtirok etish, jismoniy va yuridik shaxslarning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasidan tushgan murojaatlarini o'z vaqtida va to'laqonli ko'rib chiqish;

17) hududiy tuzilma xodimlari lavozim maoshiga mukofotlar, ustamalar to'lash, ularga moddiy yordam berish, ularni mukofotlash, rag'batlantirish va ularga intizomiy chora qo'llash to'g'risida qaror qabul qilish, ularni davlat mukofotlari va idoraviy mukofotlar bilan taqdirlash to'g'risida Vazirlikka takliflar kiritish;

18) davlat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlarning himoya qilinishini ta'minlash;

Oldingi tahrirga qarang.

19) korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga milliy intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilishni ta'minlash bo'yicha konsultativ va amaliy ko'maklashish;

20) intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofaza qilinishini, mualliflarning va boshqa huquq egalari huquqlari muhofaza qilinishini ta'minlash bo'yicha, shu jumladan kontrafakt mahsulotlarini ishlab chiqarish, tarqatish va realizatsiya qilishga qarshi kurashda vakolatli davlat organlariga ko'maklashish orqali tegishli chora-tadbirlar ko'rish;

21) davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining intellektual mulk sohasidagi faoliyatini tartibga solishda huquqni qo'llash amaliyotini izchil va bir xilda ta'minlash;

22) aholi o'rtasida intellektual mulk muhofazasi sohasida huquqiy madaniyatni oshirish bo'yicha targ'ibot tadbirlarini tashkillashtirish va o'tkazish.

(20-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-iyuldagi PQ-4380-sonli qaroriga asosan 19 — 22-kichik bandlar bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 07/19/4380/3360-son)

6-bob. Vazirlik rahbarlarining javobgarligi

21. Adliya vaziri:

Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi;

ushbu Nizomning 14-bandida nazarda tutilgan javobgarlik sohalari bo'yicha;

ushbu Nizomning 17-bandida ko'rsatilgan o'z funksional vazifalarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

22. Vazir o'rinbosarlari:

Vazirlikning mutasaddilik qilinadigan tarkibiy tuzilmalarida Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi;

ushbu Nizomning 14-bandida nazarda tutilgan Vazirlikning mutasaddilik qilinadigan masalalarga doir javobgarlik sohalari bo'yicha;

ushbu Nizomning 18-bandida ko'rsatilgan o'z funksional vazifalarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

23. Markaziy apparat tarkibiy tuzilmalari rahbarlari:

tegishli tarkibiy tuzilmalarga yuklangan vazifalar va funksiyalarning amalga oshirilishi;

ushbu Nizomning 15-bandida nazarda tutilgan Vazirlik markaziy apparatining javobgarlik sohalari bo'yicha;

ushbu Nizomning 19-bandida ko'rsatilgan o'z funksional vazifalarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

24. Vazirlikning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar (shaharlar) va Toshkent shahridagi hududiy tuzilmalari rahbarlari:

hududiy tuzilmalarga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi;

Vazirlik hududiy tuzilmalarining ushbu Nizomning 16-bandida nazarda tutilgan javobgarlik sohalari bo'yicha;

ushbu Nizomning 20-bandida ko'rsatilgan o'z funksional vazifalarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

7-bob. Vazirlik faoliyatini tashkil etish

1-§. Vazirlik rahbariyati

25. Vazirlikka O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining tavsiyasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan vazir boshchilik qiladi.

26. Vazir o'zining maqomiga ko'ra Vazirlar Mahkamasi a'zosi hisoblanadi.

27. Vazirning o'rinbosarlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

28. Vazir bo'lmagan vaqtda uning vakolatlari vazirning birinchi o'rinbosari tomonidan, u bo'lmagan vaqtda esa vazir buyrug'iga asosan boshqa o'rinbosar tomonidan amalga oshiradi.

29. Vazirlikning hududiy tuzilmalar va idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlari vazir tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi, qonun hujjatlari bilan belgilangan hollar bundan mustasno.

30. Vazirlikning hududiy tuzilmalar va idoraviy mansub tashkilotlar to'g'risidagi nizom vazir tomonidan tasdiqlanadi, agar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasi qarorlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa.

2-§. Yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarish, shuningdek Vazirlik markaziy apparati tarkibiy tuzilmalarining uning hududiy tuzilmalari bilan o'zaro hamkorligi tartibi

31. Vazirlik o'ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bevosita, shuningdek adliya organlari va muassasalari orqali bajaradi.

32. Vazirlik markaziy apparati tarkibiy tuzilmalarining uning hududiy tuzilmalari va idoraviy mansub tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligi markaziy apparat tarkibiy tuzilmalarining rahbarlari tomonidan ta'minlanadi.

33. Vazirlik markaziy apparatining tarkibiy tuzilmalari Vazirlikning hududiy tuzilmalari bilan o'z faoliyati yo'nalishlari bo'yicha o'zaro hamkorlik qilib:

topshiriqlarni hududiy tuzilmalarga va idoraviy mansub tashkilotlarga yetkazadi hamda ularning bajarilishini nazorat qiladi;

Vazirlikning hududiy tuzilmalariga va idoraviy mansub tashkilotlariga tarkibiy tuzilmalarning bevosita faoliyati masalalari bo'yicha so'rovlar yuboradi hamda ularning ijro etilishini nazorat qiladi;

Vazirlikning hududiy tuzilmalari va idoraviy mansub tashkilotlari faoliyati amaliyotini tekshiradi va o'rganadi, umumlashtiradi, uni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va qabul qiladi;

Vazirlikning hududiy tuzilmalari va idoraviy mansub tashkilotlari faoliyatini tashkil etish va faoliyati natijalari to'g'risida hisobot va axborot materiallari, statistika ma'lumotlari va boshqa ma'lumotlar o'rganilishini tashkil etadi;

Vazirlikning hududiy tuzilmalari va idoraviy mansub tashkilotlari ish rejalarini tahlil qiladi, ularning faoliyatini rejalashtirishni takomillashtirishga doir choralar ko'radi;

Vazirlikning hududiy tuzilmalari va idoraviy mansub tashkilotlaridan tushgan takliflarni ko'rib chiqadi;

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashda Vazirlikning hududiy tuzilmalari va idoraviy mansub tashkilotlari ishtirokini tashkil etadi, qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha ulardan tushgan takliflarni ko'rib chiqadi.

34. Vazirlikning hududiy tuzilmalari va idoraviy mansub tashkilotlari Vazirlik markaziy apparatining tarkibiy tuzilmalari bilan o'zaro hamkorlik qiladi, shu jumladan:

Vazirlik rahbariyati topshiriqlari ijrosi haqida xabar beradi;

belgilangan faoliyat sohasida qonun hujjatlarini amalga oshirish bo'yicha faoliyat natijalari to'g'risida markaziy apparatga axborot taqdim etadi;

ularning faoliyatini tekshirish va o'rganish natijasida ishda aniqlangan kamchiliklar va qoidabuzarliklarni bartaraf etish natijalari to'g'risida xabar beradi;

o'z faoliyati natijalari to'g'risidagi hisobotlarni belgilangan tartibda va muddatlarda Vazirlikning markaziy apparatiga taqdim etadi;

Vazirlik vakolatiga taalluqli sohalardagi muammolarni hal qilishga qaratilgan takliflarni Vazirlikning markaziy apparatiga yuboradi;

mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat organlarining hududiy tuzilmalari, kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar bilan o'zaro hamkorlik natijalari to'g'risida xabar beradi;

vakolatli organlar tomonidan o'tkazilgan o'z faoliyatini tekshirish natijalari to'g'risida ma'lumot beradi;

Oldingi tahrirga qarang.

intellektual mulk sohasida huquqbuzarliklarni aniqlash va oldini olish bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi, soliq va boshqa davlat organlari bilan hamkorlik natijalari to'g'risida hisobot beradi.

(34-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-iyuldagi PQ-4380-sonli qaroriga asosan xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 07/19/4380/3360-son)

35. Vazirlik markaziy apparati tarkibiy tuzilmalari va uning hududiy tuzilmalari hamda idoraviy mansub tashkilotlarning o'zaro hamkorligi jarayonida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar vazirning topshirig'iga binoan uning tegishli o'rinbosari tomonidan ko'rib chiqiladi. Agar vazir o'rinbosari tomonidan kelishmovchiliklarni tartibga solishning imkoniyati bo'lmasa, so'nggi qaror bevosita vazir tomonidan qabul qilinadi.

3-§. Vazirlikning boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorligi

36. Vazirlik o'z vazifalari va funksiyalarini amalga oshirishda boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

37. Vazirlikning hududiy tuzilmalari o'z vakolati doirasida boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining hududiy organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

Vazirlikning hududiy tuzilmalari tegishli hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqishda va amalga oshirishda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar bilan o'zaro yaqin hamkorlik qiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Vazirlikning hududiy bo'linmalari o'z vakolatlari doirasida intellektual mulk sohasida huquqbuzarliklarni aniqlash va oldini olish bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi, soliq va boshqa hududiy davlat organlari bilan hamkorlik qiladi.

(37-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-iyuldagi PQ-4380-sonli qaroriga asosan xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 07/19/4380/3360-son)

Oldingi tahrirga qarang.

38. Vazirlikning faoliyatiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining tegishli tarkibiy bo'linmalari tomonidan mutasaddilik qilinadi.

(38-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi PF-5650-sonli Farmoni tahririda)

§ 4. Vazirlikning hay'ati, boshqa kengash, maslahat, ekspert organlari

39. Vazirlikda rahbar, (hay'at raisi), uning o'rinbosarlari (lavozimi bo'yicha), shuningdek uning faoliyatining asosiy yo'nalishlarini muvofiqlashtiruvchi tarkibiy tuzilmalar rahbarlaridan iborat tarkibda hay'at tuziladi.

Hay'at tarkibining soni va shaxsiy tarkibi vazirning taqdimnomasiga binoan Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

40. Hay'atga quyidagi vazifalar yuklanadi:

Vazirlik faoliyatining ushbu Nizomda belgilangan asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

qonun hujjatlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlarida belgilangan vazifalar o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini

ta'minlash uchun Vazirlik tizimi xodimlari va rahbarlarining shaxsiy javobgarligini oshirish bo'yicha choralari ko'rgan holda tarkibiy va hududiy tuzilmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlari hisobotlarini muntazam ravishda eshutilishini tashkil etish;

Vazirlik faoliyati sohasidagi hududiy va tarmoq dasturlari amalga oshirilishining natijadorligini har chorakda va muntazam ko'rib chiqish;

joylarda Vazirlik faoliyati sohasidagi dolzarb masalalar muhokama qilinishini ta'minlagan holda hay'atning kengaytirilgan sayyor majlislari o'tkazilishini tashkil etish, shuningdek yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha tegishli qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilish;

Vazirlik markaziy apparati va uning tizimiga kiradigan lavozimlar nomenklaturasini ko'rib chiqish va tasdiqlash;

Vazirlik nomenklaturasiga kiradigan lavozimlarga kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish masalalarini ko'rib chiqish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari va topshiriqlari bilan belgilangan vazifalar o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash uchun Vazirlik rahbarlari va xodimlarining ijro intizomini mustahkamlash va shaxsiy javobgarligini oshirish.

Hay'at Vazirlik vakolatiga kiritilgan boshqa masalalarni ham ko'rib chiqishga haqlidir.

41. Hay'at majlisiga davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, boshqa tashkilotlar rahbarlari, ularning vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan taklif etilishi mumkin.

42. Hay'at, agar uning majlisida hay'at tarkibining yarmidan ko'pi qatnasha, vakolatli hisoblanadi. Ko'rib chiqilayotgan masalalar yuzasidan qarorlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

43. Hay'at qarorlari vazirning buyruqlari bilan amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

44. Vazir va hay'at a'zolari o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, vazir yuzaga kelgan kelishmovchiliklar haqida Vazirlar Mahkamasiga va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoniga axborot bergan holda mustaqil ravishda qaror qabul qiladi. Hay'at a'zolari ham Vazirlar Mahkamasiga va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga o'z fikrini xabar qilishi mumkin.

(44-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi PF-5650-sonli Farmoni tahririda)

45. Hay'at faoliyati tartibi hay'at tomonidan tasdiqlanadigan uning reglamenti bilan belgilanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

46. Vazirlik huzurida O'zbekiston Respublikasi adliya vaziri rais hisoblangan intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasi bilan bog'liq bo'lgan apellatsiyalarni sudgacha ko'rib chiquvchi Apellatsiya kengashi tashkil etiladi.

Apellatsiya kengashining tarkibiga intellektual mulk sohasidagi mustaqil olimlar va mutaxassislar kiradi. Apellatsiya kengashi tarkibida adliya organlari va muassasalarining xodimlari soni Apellatsiya kengashi a'zolari umumiy sonining o'ttiz foizidan oshmasligi lozim.

Vazirlikda boshqa kengash, maslahat va ekspertlik organlari tuzilishi mumkin.

(46-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-iyuldagi PQ-4380-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 02.07.2019-y., 07/19/4380/3360-son)

47. Vazirlik huzurida tuziladigan kengash, maslahat va ekspertlik organlari tarkibi va ular to'g'risidagi nizomlar vazir tomonidan tasdiqlanadi, ularning tarkibi va nizomlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va Vazirlar Mahkamasini qarorlari bilan tasdiqlanadigan hollar bundan mustasno.

8-bob. Vazirlik faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ish indikatorlari

48. Vazirlik faoliyatining samaradorligi muntazam baholanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

49. Vazirlik faoliyati samaradorligi va natijadorligiga berilgan baho O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining tegishli tarkibiy bo'linmalari tomonidan tasdiqlanadigan Vazirlik faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ish indikatorlariga asoslanadi.

(49-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi PF-5650-sonli Farmoni tahririda)

50. Vazirlik faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash yakunlari bo'yicha:

Vazirlik rahbarlari va xodimlarini rag'batlantirish (mukofotlash) yoki intizomiy javobgarlikka tortish;

Vazirlik faoliyatida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va uning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari ko'riladi.

51. Vazirlik faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash tartibi va uslubiyoti qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

9-bob. Vazirlikni moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minlash, uning xodimlari mehnatiga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish

52. Vazirlik va uning hududiy tuzilmalarini moddiy-texnik ta'minlash xarajatlarini moliyalashtirish, shuningdek ularning xodimlari mehnatiga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti, budjetdan tashqari fondlarning manbalari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

53. Vazirlik xodimlarining ish haqi lavozim maoshi, mukofotlar, qo'shimcha haqlar, ustamalardan va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to'lovlardan iborat.

Oldingi tahrirga qarang.

Xizmat vazifasini sidqidildan va samarali bajarib kelayotgan Vazirlikning yuqori malakali, tashabbuskor xodimlariga yuqori malakasi uchun vazir tomonidan adliya organlari va muassasalarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan lavozim maoshining 200 foizi miqdoridan ko'p bo'lmagan shaxsiy ustamalar belgilanishi mumkin.

(53-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 11-iyuldagi PF-5475-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.07.2018-y., 06/18/5475/1489-son)

Vazirlik xodimlari lavozim maoshlariga har oyda qo'shiladigan rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan qo'shimcha haqlar va ustamalar vazir tomonidan tasdiqlanadigan qoidalarga muvofiq to'lanadi.

54. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari bilan boshqa lavozimlarga tayinlangan yoki O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati, Qonunchilik palatasiga saylangan (tayinlangan) Vazirlikning xodimlarida Vazirlikda berilgan ko'p yillik xizmatlari uchun qo'shimcha haq va ustamalar hamda martaba darajalari saqlanadi.

10-bob. Vazirlikning hisobdorligi

Oldingi tahrirga qarang.

55. Vazirlik rahbarlari o'z faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining tegishli tarkibiy bo'linmalariga va Vazirlar Mahkamasiga muntazam ravishda hisobot beradi.

(55-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi PF-5650-sonli Farmoni tahririda)

Oldingi tahrirga qarang.

56. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining tegishli tarkibiy bo'linmalari rahbarlari Vazirlik rahbarlariga yuklangan vazifalar samarali bajarilishi bo'yicha ular faoliyati ustidan muntazam monitoring olib boradi, Vazirlik faoliyati samaradorligiga xolisona baho beradi.

(56-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi PF-5650-sonli Farmoni tahririda)

57. Monitoring va baholash yakunlari bo'yicha Vazirlikning alohida o'rnak ko'rsatgan rahbarlari, mansabdor shaxslari va xodimlari rag'batlantiriladi yoxud yo'l qo'yilgan jiddiy kamchiliklar uchun egallab turgan lavozimidan ozod etishgacha bo'lgan javobgarlikka tortiladi.

11-bob. Yakunlovchi qoida

58. Vazirlikni qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qaroriga
2-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimining

TASHKILY TUZILMASI

Oldingi tahrirga qarang.




(2-илова О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son) Oldingi tahrirga qarang.

О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qaroriga 3-ILOVA


Oldingi tahrirga qarang.

О‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi markaziy apparatining

TUZILMASI



birinchi o'rinbosari	o'rinbosari	o'rinbosari	o'rinbosari	o'rinbosari	nazorat va tahlil boshqarmasi 9
Qonunchilik bosh boshqarmasi 1	Davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini tahlil va monitoring qilish boshqarmasi 8	Huquqiy xizmat ko'rsatishni davlat tomonidan tartibga solish boshqarmasi 9	Fuqarolik-huquqiy munosabatlarni rivojlantirish boshqarmasi 5	Nodavlat notijorat tashkilotlar boshqarmasi 12	Kadrlar boshqarmasi 6
Jinoiy, ma'muriy va ijtimoiy qonunchilik boshqarmasi 14	Ma'muriy tartib-taomillarni rivojlantirish va monitoringini yuritish boshqarmasi 5	Yuridik ta'lim va sud-ekspertiza faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi 5	Xalqaro va xorijiy tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasining manfaatlarini huquqiy himoya qilish boshqarmasi 7	Huquqiy targ'ibot va ma'rifat boshqarmasi 7	Moliya-iqtisod boshqarmasi 7
Iqtisodiy qonunchilik boshqarmasi 14	Ijtimoiy-iqtisodiy sohada huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish boshqarmasi 13	Inson huquqlarini himoya qilish boshqarmasi 6	Xalqaro va xorijiy tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasining manfaatlarini huquqiy himoya qilish boshqarmasi 7	Yuridik xizmatlarning faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi 6	Birinchi bo'lim 1
Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish boshqarmasi 11	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va topshiriqlari		Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash boshqarmasi 6		Jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi 2
Qonun hujjatlarini tahlil qilish va tizimlashtiri			Xalqaro-huquqiy hamkorlik boshqarmasi 7		Ishlar boshqarmasi 7
					Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish




Boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni — 210 birlik.


(3-ilovaning matni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qaroriga
4-ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligining TUZILMASI





Jami: Boshqaruv xodimlarining cheklangan soni 26 birlikni tashkil qiladi.

* Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligining umumiy shtatlar soniga kirmaydi.

Boshqaruv xodimlarining cheklangan soniga mazkur qarorning 3-bandiga asosan O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining buyrug'i bilan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.


(4-ilovaning matni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qaroriga
5-ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

Viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalarining

NAMUNAVIY TUZILMASI





Viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni 314 birlikni tashkil qiladi, hududlar kesimida ularning aniq soni O'zbekiston Respublikasi adliya vaziri tomonidan aniqlanadi.

* Viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalarining umumiy shtatlar soniga kirmaydi.

Viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari boshqaruv xodimlarining cheklangan soniga mazkur qarorning 3-bandiga asosan O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining buyrug'i bilan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.


(5-ilovaning matni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qaroriga
6-ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

Tuman (shahar) adliya bo'limlarining

NAMUNAVIY TUZILMASI



Tumanlar (shaharlar) adliya bo'limlari boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni 565 birlikni tashkil qiladi, tuman (shaharlar) kesimida ularning aniq soni O'zbekiston Respublikasi adliya vaziri tomonidan aniqlanadi. Tumanlar (shaharlar) adliya bo'limlarining faoliyatini moliyalashtirish, notarial idoralar bundan mustasno, mahalliy budjet va adliya organlari va muassasalarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

* Notarial idoralar soni tumanlar (shaharlar) adliya bo'limlari umumiy soniga kiritilmaydi.


Tumanlar (shaharlar) adliya bo'limlari boshqaruv xodimlarining cheklangan soniga mazkur qarorning 3-bandiga asosan O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining buyrug'i bilan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

(6-ilovaning matni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-martdagi PF-6184-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qaroriga
7-ILOVA

Normativ-huquqiy hujjatlarni ijrochilarga yetkazish hamda normalari va qoidalarini aholiga tushuntirish

SXEMASI



LexUZ sharhi
7-ilova norasmiy tarjima.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qaroriga
8-ILOVA

Adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini ta’minlash bo‘yicha kompleks

CHORA-TADBIRLAR

Oldingi tahrirga qarang.

T/r	Chora-tadbirlar nomlanishi	Amalga oshirish shakli	Ijro muddatlari	Mas’ul ijrochilar
I. ADLIYA ORGANLARI VA MUASSASALARI FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH				
1.	Adliya vazirligining markaziy apparati, hududiy organlari va idoraviy mansub tashkilotlari tarkibiy tuzilmalarining nizomlari va ustavlarini ishlab chiqish va tasdiqlash.	Adliya vazirining buyruqlari	2018-yil 5-mayga qadar	Adliya vazirligi (R. Davletov)

2.	Adliya vazirligi huzuridagi Huquqiy siyosat tadqiqoti instituti faoliyatini tashkil qilish, uni joylashtirish, moddiy-texnik ta'minoti bo'yicha takliflar tayyorlash, unda institut xodimlari mehnatiga haq to'lash sharoitlarini O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi markaziy apparati xodimlari bilan tenglashtirishni nazarda tutish.	Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi	2018-yil 15-mayga qadar	Adliya vazirligi (R. Davletov), Bosh prokuratura (O. Murodov), Moliya vazirligi (J. Kuchkarov)
3.	Adliya vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi Nizomi, tarkibi hamda yuklatilgan vazifalarni samarali bajarishga qaratilgan birgalikdagi chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni tasdiqlash.	Adliya vazirining buyrug'i	2018-yil 15-mayga qadar	Adliya vazirligi (R. Davletov)
4.	Budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan adliya organlari va muassasalari, davlat tashkilotlarining yuridik xizmatlari xodimlarini rivojlangan xorijiy davlatlarning yetakchi ta'lim muassasalarida o'qitish va malakasini oshirish uchun jo'natish to'g'risidagi tartibni tasdiqlash.	Adliya vazirining buyrug'i	2018-yil 15-mayga qadar	Adliya vazirligi (R. Davletov), TIV (A. Kamilov), Moliya vazirligi (J. Kuchkarov)
5.	Xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan yurisprudensiya sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga quyish bo'yicha kompleks choralar ko'rish, shuningdek O'zbekistonda ularning filiallarini tashkil etish yuzasidan asoslantirilgan takliflar kiritish.	Chora-tadbirlar kompleksi	2018-yil 1-iyulga qadar	Adliya vazirligi (R. Davletov), TIV (A. Kamilov), Bosh prokuratura (O. Murodov), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (I. Majidov)
II. HUQUQ IJOD QILISH AMALIYOTI VA HUQUQIY XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA ADLIYA ORGANLARI VA MUASSASALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TA'MINLASH VA TAKOMILLASHTIRISH				
6.	O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalarini joylashtirish va muhokama qilish tartibini takomillashtirish.	Chora-tadbirlar kompleksi	2018-yil 15-mayga qadar	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (O. Umarov), Adliya vazirligi (R. Davletov)

7.	<p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni va Vazirlar Mahkamasi reglamentlariga quyidagilarni nazarda tutgan tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritish:</p> <p>jamoatchilik muhokamasini o‘tkazish uchun normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida joylashtirish; normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari idoralararo kelishuvlardan so‘ng, Adliya vazirligi tomonidan huquqiy ekspertizani o‘tkazish hamda takroran — Vazirlar Mahkamasi apparati va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni tarkibiy tuzilmalarida ularning konseptual qoidalari o‘zgartirilganidan keyin; Adliya vazirligi tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida huquqiy ekspertizasi natijalari bo‘yicha berilgan xulosasi mavjud bo‘lgan taqdirdagina O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni, Vazirlar Mahkamasi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalarini kiritish.</p>	Normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari	2018-yil 15-mayga qadar	Adliya vazirligi (R. Davletov), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (O. Umarov), vazirlik va idoralar
8.	<p>Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tmagan 1993-yil 17-iyunga qadar qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, shu jumladan 2019-yil 1-yanvardan o‘z kuchini yo‘qotayotgan sobiq Sovet Ittifoqining idoraviy hujjatlari o‘rniga qabul qilingan yangi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishni nazarda tutgan tadbirlar rejasi loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish,</p>	Tadbirlar rejasi	2018-yil 15-iyunga qadar	Adliya vazirligi (R. Davletov), vazirlik va idoralar

9.	<p>Quyidagi ma'lumotlarni taqdim qilish tartibini nazarda tutgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi reglamentlariga, shuningdek xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlari Namunaviy reglamentiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish:</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga adliya vaziri tomonidan davlat organlari va tashkilotlarida norma ijodkorligi faoliyati va huquqni qo'llash amaliyoti holati to'g'risida;</p> <p>Qoraqalpog'iston Respublikasi adliya vaziri va hududiy adliya boshqarmalari boshliqlari tomonidan mahalliy davlat hokimiyati organlarida norma ijodkorligi faoliyati holati to'g'risida tegishli</p> <p>Qo'raqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga; tuman (shahar) adliya bo'limlari boshliqlari tomonidan tuman (shahar) darajasidagi davlat organlari va tashkilotlarida norma ijodkorligi faoliyati va huquqni qo'llash amaliyoti holati to'g'risida tegishli tuman (shahar) xalq deputatlari Kengashiga.</p>	Normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari	2018-yil 15-mayga qadar	Adliya vazirligi (R. Davletov)
10.	Xalqaro shartnomalarning loyihalarini tayyorlash, yuridik-texnik rasmiylashtirish va huquqiy ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risida metodik yo'riqlar tayyorlash.	Qo'shma qaror loyihasi	2018-yil 1-iyungacha qadar	Adliya vazirligi (R. Davletov), TIV (A. Kamilov)
11.	Normativ-huquqiy hujjatlar va loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazish metodikasini takomillashtirish.	Adliya vazirining buyrug'i	2018-yil 1-iyungacha qadar	Adliya vazirligi (R. Davletov)

12.	<p>Notariat institutini bosqichma-bosqich takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash: birinchi bosqichda — amaldagi notariat tizimini, notarial xizmatlar ko'rsatish tartibi, majburiy notarial tasdiqlanadigan bitimlar ro'yxatini tanqidiy o'rganish va o'rganish natijalari bo'yicha nizolarning oldini olishga qaratilgan institut sifatida notariat tizimini yanada takomillashtirishni nazarda tutgan takliflar kiritish; ikkinchi bosqichda — ilg'or xorijiy tajribani va milliy amaliyotni qiyosiy o'rganishga asoslangan davlat notarial idoralarni nodavlat shaklga o'tkazish maqsadga muvofiqligi to'g'risida takliflar tayyorlash.</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, tahliliy ma'lumot</p>	<p>2018-yil 15-mayga qadar 2019-yil 1-iyulga qadar</p>	<p>Adliya vazirligi (R. Davletov), Moliya vazirligi (A. Xaydarov)</p>
-----	---	--	---	---

IV. ADLIYA ORGANLARI VA MUASSASALARI FAOLIYATIGA ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYATEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH

13.	<p>“Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi” DUK faoliyatini tashkil qilish va uni yuqori malakali kadrlar bilan to'ldirish.</p>	<p>Adliya vazirining buyrug'i</p>	<p>2018-yil 15-mayga qadar</p>	<p>Adliya vazirligi (R. Davletov)</p>
14.	<p>Adliya organlari va muassasalari faoliyatiga, birinchi navbatda yuridik xizmat hamda davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasiga, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilgan holda faoliyatning innovatsion metodlarini tatbiq etish.</p>	<p>Chora-tadbirlar kompleksi</p>	<p>2018-yil 15-mayga qadar</p>	<p>Adliya vazirligi (R. Davletov), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (O. Umarov)</p>
15.	<p>Mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar, rasmiy veb-saytlardagi Internet-botlar, “tezkor aloqa”lar orqali aholi bilan qayta aloqaning samarali tizimini tashkil qilish.</p>	<p>Chora-tadbirlar kompleksi</p>	<p>2018-yil 1-iyungacha qadar</p>	<p>Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (O. Umarov), Adliya vazirligi (R. Davletov)</p>
16.	<p>“Ishonch telefoni”ga kirish qo'ng'iroqlarini yozib olish imkoniyati bilan ularni avtomatlashtirilgan tarzda qayd qilishni joriy etish.</p>	<p>Chora-tadbirlar kompleksi</p>	<p>2018-yil 1-iyungacha qadar</p>	<p>Adliya vazirligi (R. Davletov)</p>

V. ADLIYA ORGANLARI VA MUASSASALARI KADRLAR SALOHİYATINI MUSTAHKAMLASH VA XODIMLARINI MODDIY RAG'BATLANTIRISH SHAROITLARINI YAXSHILASH

17.	Adliya organlari va muassasalari xodimlari faoliyati samaradorligini baholash mexanizmini joriy etish.	Adliya vazirining buyrug‘i	2018-yil 15-mayga qadar	Adliya vazirligi (R. Davletov)
18.	Adliya organlari va muassasalari xodimlarining malakasini oshirish, shu jumladan masofadan o‘qitishni joriy qilib, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash.	Reja-jadval	Doimiy	Adliya vazirligi (R. Davletov), manfaatdor vazirlik va idoralar
VI. TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI MAGISTRATURASIGA QABUL QILISH VA O‘QITISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH, YURIDIK KOLLEJLARNI TASHKIL ETISH, YURIDIK MUTAXASSISLIK BO‘YICHA QAYTA TAYYORLASHNI TASHKIL QILISH				
21.	Adliya vazirligining yuridik kollejarida ta’lim olishni tashkil qilish tartibini belgilash, bituvchilarini Toshkent davlat yuridik universitetiga qabul qilish, shu jumladan o‘qishni tamomlaganidan so‘ng ular uch yil davomida hamda taqsimotga muvofiq uzluksiz ishlashi, shuningdek ta’lim jarayonini takomillashtirish uchun ularning namunaviy tuzilmasini tasdiqlash.	Vazirlar Mahkamasining qarori	2018-yil 1-iyunga qadar	Adliya vazirligi (R. Davletov), TDYU (E. Kanyazov)
22.	Adliya vazirligi tuzilmasida tashkil etilayotgan yuridik kollejlarning o‘quv rejalari va dasturlarini tasdiqlash.	TDYU Kengashining qarori	2018-yil 1-iyunga qadar	TDYU (E. Kanyazov)
23.	Toshkent davlat yuridik universiteti boshqaruv xodimlari, professor-o‘qituvchilari, ilmiy, o‘quv-yordamchi, texnik va xizmat ko‘rsatish xodimlarini moddiy rag‘batlantirish uchun Maxsus jamg‘armasi miqdorini oshirish, bunda mazkur jamg‘arma hisobidan har oylik ustamalar miqdori o‘shirishini hisobga olish.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori	2018-yil 15-mayga qadar	Adliya vazirligi (R. Davletov), Moliya vazirligi (A. Karimov), TDYU (E. Kanyazov)
24.	Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo‘yicha professional o‘qitish markazi faoliyatini tashkil qilish hamda yuridik mutaxassislik bo‘yicha qayta tayyorlovga ruxsat berilgan oliy ta’lim yo‘nalishlari ro‘yxatini tasdiqlash.	Vazirlar Mahkamasining qarori	2018-yil 1-iyunga qadar	Adliya vazirligi (R. Davletov), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Majidov) TDYU (E. Kanyazov)

VII. HUQUQIY TARG‘IBOT VA XALQ BILAN MULOQOT SOHASIDA ADLIYA ORGANLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

25.	Amaldagi huquqiy targ‘ibot tizimini tanqidiy tahlil qilish. Tahlil natijalari bo‘yicha yangi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini yetkazish va tushuntirish bo‘yicha namunaviy “Yo‘l xaritasi”ni tayyorlash.	Namunaviy “Yo‘l xaritasi”	2018-yil 15-mayga qadar	Adliya vazirligi (R. Davletov)
26.	Aholi uchun eng dolzarb masalalarni aniqlash hamda ular yuzasidan huquqiy axborot, tushuntirish va yuridik maslahatlar berish. Manzilli huquqiy targ‘ibot olib borish va aholiga qonunchilik hujjatlari mazmun-mohiyatini yetkazish.	So‘rovnomalar, tadqiqotlar, Tadbirlar rejasi	Har chorakda	Adliya vazirligi (R. Davletov), manfaatdor vazirlik va idoralar
27.	Huquqiy targ‘ibotning innovatsion metodlaridan keng foydalanish. Xususan: veb-texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish, Adliya vazirligining Internetdagi ijtimoiy tarmoqlarda (Facebook, Twitter, Youtube, Mytube. uz va h.k.z.) faoliyatini faollashtirish; aholiga oddiy va tushunarli tilda normativ-huquqiy hujjatlarning ahamiyatini yetkazish maqsadida qulay efir vaqtida tele va audioroliklar, infografik materiallarni namoyish qilish; huquqiy targ‘ibot bo‘yicha tegishli materiallarni tayyorlash va tarqatish (ijtimoiy roliklar, suratlar, infografika, bukletlar, anketalar); fuqarolarni huquqiy ma’rifatga yetaklovchi va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan o‘rgatuvchi videoroliklar, kino v videofilmlar yaratish va namoyish qilish; Adliya vazirligining veb-saytlarida “onlayn maslaxatchi” xizmati faoliyatini kengaytirish.	Media-jadval	Tasdiqlash har chorakda Amalga oshirish jadval asosida	Adliya vazirligi (R. Davletov), manfaatdor vazirlik va idoralar

28.	Ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish va namoyish etish uchun qabul qilingan hujjatlar bo'yicha materiallar tayyorlash yuzasidan idoralararo ishchi guruhini tuzish. Aholi orasida ommaviylashgan, shu jumladan elektron ommaviy axborot vositalarida qonunchilik hujjatlarining ahamiyati va mohiyatini tushuntiruvchi materiallar tayyorlash.	Adliya vazirining buyrug'i	Doimiy	Adliya vazirligi (R. Davletov), manfaatdor vazirlik va idoralar
29.	“O‘z huquqlaringni bilgin”, “Qonun barchaga barobar” va “Qonunni buzma” mavzularida sujetli teleko‘rsatuvlarni tayyorlash va translatsiya qilish.	Tadbirlar rejasi	Doimiy	Adliya vazirligi (R. Davletov), manfaatdor vazirlik va idoralar
30.	Ommaviy axborot vositalari, shu jumladan bosma va elektron ommaviy axborot vositalari vakillariga qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning maqsadlari, ma'nosi va ahamiyatini tushuntirish uchun matbuot anjumanlari o'tkazish.	Normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish tartiboti asosida	Har oyda	Adliya vazirligi (R. Davletov), manfaatdor vazirlik va idoralar

(8-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi PF-5987-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2020-y., 06/20/5987/0521-son)



LexUZ sharhi

8-ilova norasmiy tarjima.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qaroriga
9-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik kollejlari etib qayta tashkil etilayotgan kasb-hunar kollejlari va akademik litseyi

RO'YXATI

T/r	Hududlar	Qayta tashkil etilayotgan kasb-hunar kollejlari va akademik litsey	Adliya vazirligi tarkibidagi yuridik kollejlari
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus yuridik kolleji	Qoraqalpog'iston Respublikasi yuridik kolleji
2.	Andijon viloyati	Andijon moliya-iqtisod kolleji	Andijon viloyati yuridik kolleji
3.	Buxoro viloyati	Buxoro yuridik va maishiy xizmatlar kasb-hunar kolleji	Buxoro viloyati yuridik kolleji
4.	Jizzax viloyati	Jizzax huquqshunoslik kolleji	Jizzax viloyati yuridik kolleji
5.	Qashqadaryo viloyati	Qarshi iqtisodiyot kolleji	Qashqadaryo viloyati yuridik kolleji
6.	Namangan viloyati	Namangan yuridik kolleji	Namangan viloyati yuridik kolleji
7.	Navoiy viloyati	Navoiy davlat pedagogika instituti	Navoiy viloyati yuridik kolleji

		huzuridagi Navoiy kompyuter va axborot texnologiyalari akademik litseyi	
8.	Samarqand viloyati	Samarqand huquqshunoslik kolleji	Samarqand viloyati yuridik kolleji
9.	Surxondaryo viloyati	Termiz ijtimoiy-iqtisodiy kasb-hunar kolleji	Surxondaryo viloyati yuridik kolleji
10.	Sirdaryo viloyati	Guliston yengil sanoat va servis kasb-hunar kolleji	Sirdaryo viloyati yuridik kolleji
11.	Toshkent viloyati	Yuqori Chirchiq tuman transport va iqtisodiyot kolleji	Toshkent viloyati yuridik kolleji
12.	Farg‘ona viloyati	Farg‘ona huquqshunoslik kolleji	Farg‘ona viloyati yuridik kolleji
13.	Xorazm viloyati	Urganch tuman sanoat va transport kolleji	Xorazm viloyati yuridik kolleji
14.	Toshkent shahri	Toshkent yuridik kolleji	Toshkent shahar yuridik kolleji

Oldingi tahrirga qarang.

(10-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi PF-5987-sonli Farmoniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.04.2020-y., 06/20/5987/0521-son)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qaroriga
11-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining o‘z kuchini yo‘qotgan ayrim qarorlari

RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 23-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1602-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 28-iyundagi “Yuridik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1990-son qarorining 3, 4 va 5-bandlari, shuningdek unga 3-ilova.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 21-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi PQ-2071-son qarori ilovasining 4-bandi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 15-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2011-yil 23-avgustdagi PQ-1602-sonli qaroriga o‘zgartishlar kiritish haqida”gi PQ-2347-son qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 25-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2480-son qarorining 1-bandi, shuningdek ilovaning 1-bandi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-fevraldagi “Qonun hujjatlarini tarqatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2761-son qarorining 3-bandi, shuningdek unga 1-ilova.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-apreldagi “Toshkent davlat yuridik universitetida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va samaradorligini oshirish

chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2932-son qarorining 3-ilovasi 1-bandining **ikkinchi** va **uchinchi** xatboshilari.

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.04.2018-y., 07/18/3666/1073-son, 11.07.2018-y., 06/18/5475/1489-son; 02.07.2019-y., 07/19/4380/3360-son; 02.11.2019-y., 07/19/4505/3987-son; 30.04.2020-y., 06/20/5987/0521-son; 20.05.2020-y., 06/20/5997/0634-son; 03.06.2020-y., 06/20/6003/0708-son, 09.07.2020-y., 06/20/6021/1047-son; 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.06.2021-y., 06/21/6252/0617-son; 29.01.2022-y., 06/22/61/0084-son)